



Tadqiqot **UZ**

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**28 FEVURAL  
№25**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
10-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
25-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ- 10**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
25-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART- 10**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 25-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 28 февраль 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 76 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР

<b>1. Aglamova Shaxzoda Sobir qizi</b> BOLALARDA MADANIY-GIGIYENIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH.....	8
<b>2. Abduvoxidov Safar, Raimov Sherbekjon Ismatillayevich</b> ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA MEDIA TEXNOLOGIYALARNI FANLARNI O'QITISHDA JORIY ETISHNING USTUVOR AHAMIYATI.....	10
<b>3. Botirova Hilola Qudratovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHLARINI O'STIRISH.....	15
<b>4. Eshmurzayeva Sabohat Jamanazarovna, Lolayeva Gulchehra Egamberdiyevna</b> INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING XALQ TA'LIMI TIZIMIDA RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	16
<b>5. G'afforova Gulmera Abdumajidovna</b> TARBIYA JARAYONI MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA TAMOYILLARI.....	20
<b>6. Ibragimova Latofat Raxmatullayevna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	22
<b>7. Sapayeva Durdona Ismoilovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS JARAYONLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH.....	24
<b>8. Joldasova Kamila Jollibaevna, Kazakbaeva Gawxar Bazarbaevna</b> MASOFADAN O'QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ASOSLARI.....	26
<b>9. Karimova Mashxura Bazarovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA OG'ZAKI NUTQNI O'STIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	28
<b>10. Mamataliyev Ergash Elomonovich, Xudoyorov Jamshid Abdimuminovich</b> INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING XALQ TA'LIM TIZIMIDAGI YANGI BOSQICH DAVRI.....	30
<b>11. Z.E.Mirzaliyev, Shohista Sindarova</b> TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	33
<b>12. Narzullayeva Oydin</b> TEZLIK, VAQT VA MASOFA.....	35
<b>13. Oxunjonova E'zozxon Toirjon qizi, Turayeva Dilafruz Rustamboyevna</b> BOLA SHAXSINI SHAKILLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI.....	37
<b>14. Raximova Gulnoza Halim qizi</b> MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNING JISMONIY TARBIYAGA QIZIQISHINI OSHIRISH.....	40
<b>15. Saidova Xurshida Muxtorovna</b> ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI-MULOQOT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA DARSDA O'QITUVCHINING ISHINI TASHKIL ETISH.....	41
<b>16. Sayqonova Mavluda Qo'ziboyevna</b> ADABIYOT DARSLARIDA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISH.....	43
<b>17. To'xsanova Surayyo</b> NOL RAQAMI TARIXI VA O SONI.....	45
<b>18. Xolmurodov Dilmurod Bahodir o'g'li</b> O'QUVCHILARNI IJODKORLIKKA YO'NALTISHDA SCRATCH DASTURI IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI.....	47

<b>19. Жылкыбаева Жайна Хожалиевна</b> ПЕДАГОГИК КАСБИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ.....	50
<b>20. Мафтуна Рашидова</b> МАЪРИФАТ МАШЪАЛАСИ .....	52
<b>21. Тухтаев Кувончбек, Холиков Охунжон, Гуломов Улугбек,</b> <b>Камолова Дильшода, Келдиерова Мохинур</b> КЕЙС ТЕХНОЛОГИЯ - ВАЖНЫЙ КЛЮЧ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ.....	54
<b>22. Abdulloyeva Gulmehra Rasul qizi</b> TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING ANAMIYATI .....	56
<b>23. Masharipova Oliyajon Ro'zmetovna</b> BOLA TARBIYASIDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O'RNI .....	57
<b>24. Murodqosimova Shodiya Xolmamat qizi</b> MA'LUMOTLARNI IZLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHI.....	58
<b>25. Муртозоев Мелибек Зокирович, Мавлонов Эргаш Дўстмурод ўғли</b> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АХБОРОТ ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ.....	60
<b>26. Nasullayeva Shaxinabonu Jasurovna</b> BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI NAZARIY ASOSLARI.....	62
<b>27. Nishonov Akmaljon Obidovich</b> MAKTABDA INTERNET RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JHATLARI .....	64
<b>28. O'ktamova Gulbahor Nu'monovna, Mahmudova Nafisaxon Ma'rufjonovna</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSION DARSLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH .....	66
<b>29. Onarboeva Shaxloxon Ismanovna</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	68
<b>30. Shokirova Mavludaxon, Raximova Karimaxon</b> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING LUG'ATINI BOYITISH OMILLARI.....	69
<b>31. Tosheva Hamida Namozovna</b> QR KODLARINI ISHLATISHNING AFZALLIKLARI.....	71
<b>32. Кубаева Юлдуз Исмаиловна</b> XX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДАГИ ПЕДАГОГИК ҲОЯЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ .....	73
<b>33. Mustafoyeva Nigora Saimovna, Nurullayeva Gulchiroy Samandarovna</b> ONA TILI DARSLARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING YANGICHA USULLARI.....	75



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### BOLALARDA MADANIY-GIGIYENIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

**Qodirova Malikaxon Qaxramonovna,**

Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchi  
malikaqodirova73@mail.ru  
Telefon: +998905392373

**Aglamova Shaxzoda Sobir qizi,**

Jizzax davlat pedagogika instituti, II-bosqich talabasi

**Annotasiya:** Ushbu maqolada madaniy-gigiyenik ko'nikmalar, madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni bolalarda shakllantirish hamda ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda amalga oshiriladigan ishlar mazmuni ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniy-gigiyenik ko'nikmalar, muhit, rejim, yuvishinish, ovqatlanish, o'yinchoqlar, o'yin, mashg'ulot, xulq-atvor, tarbiya.

Bolalarda juda erta davrlardan boshlab madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish muhimdir. Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy shartlariga oqilona tashkil etilgan muhit, aniq kun tartibi va kattalar yetakchiligi kiradi.

To'g'ri tashkil etilgan muhit barcha rejim elementlarini (yuvishinish, ovqatlanish, uxlash, mashq qilish va o'ynash) amalga oshirilishini ta'minlash uchun kerakli jihozlarga ega toza, yetarlicha keng xonaning mavjudligini anglatadi.

Kundalik tartib kunlik ishlarimizning bajarilish ketma-ketligi bo'lib, bu xulq-atvor madaniyati ko'nikmalari va odatiy tartibda ishlashga yordam beradi. Har kuni takrorlanadigan kun tartibi bola tanasini ma'lum bir maromga o'rgatadi, faoliyatni boshqarish va shu bilan bolalarning asabiy tartibdagi ishlardan himoya qiladi.

Dastlab bolalarga tanani toza saqlash uchun gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Bolalar bilan har kungi ish jarayonida shaxsiy gigiyena qoidalarining bajarilishi ular uchun tabiiy bo'lib qolishiga va yoshga qarab gigiyena ko'nikmalarining doimiy ravishda takomillashib borishiga intilish zarur. Dastlab, bolalarni asosiy qoidalarga rioya qilishga o'rgatish lozim. Bular ovqatlanishdan oldin, hojatxonadan keyin, o'ynashdan, yurishdan va hokazolardan keyin qo'llarini yuvish ko'nikmasi.

2 yoshgacha bo'lgan bolalarga madaniy-gigiyenik ko'nikmalar qayta-qayta ko'rsatish orqali o'rgatilsa, o'rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy gigiyena qoidalarini amalga oshirishda ongli yondasha oladilar. Ular qo'llarini o'zlari sovunlab yuvib, quritib artib, o'zlarining alohida sochiq, taroq va tishlarini yuvish, chayqash uchun alohida stakandan foydalanishni bilishlari lozim. Shu bilan birga ularni hamma narsalarining poklikda bo'lishiga ishonch hosil qilishga o'rgatish lozim. [5]

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllanishida individual harakatlarning o'rni katta. Bolalarga narsalar, o'yinchoqlar joylashgan joy, ularni tozalash va saqlash tartibini o'rgatish kerak. Bolalar uchun sharoitning barqarorligi, kun davomida unga kerak bo'lgan har bir narsaning maqsadi va o'rnini bilish alohida ahamiyatga ega. Masalan, yuvinish xonasida kerakli o'lchamdagi lavabolar yetarli bo'lishi kerak, ularning har birida sovunning bo'lishi, lavabolar va sochiqlar bolalarning balandligini hisobga olgan holda joylashtirilgan bo'lishi, har bir sochiqning yuqorisida osilgan rasmlarning bo'lishi kabilar bolalarning yuvinishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. [5]

Oziq-ovqat madaniyatiga o'rgatish ham bolalikdan boshlanadi. Gigiyenik ta'lim va tarbiya madaniy xulq-atvor tarbiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Bolalarga juda yoshligidan ovqat paytida stolga to'g'ri o'tirish, ehtiyotkorlik bilan ovqatlanish, ovqatni yaxshilab chaynash, indamay ovqatlanish, qoshiq, vilka va pichoqdan foydalanishga o'rgatiladi. Guruhda navbatchilik qilishga o'rgatish bolani tartibli bo'lishga, oziq-ovqat hamda idish-tovoqlardan foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu vazifalarni bajarishdan oldin va bajarib bo'lgach qo'llarini yuvishga o'rganadilar.

Ovqatlanish madaniyati ko'pincha gigiyenik mahorat deb ataladi, ammo uning axloqiy jihati bor. Ushbu axloqiy jihat yonida o'tirganlarga, shuningdek, ovqat tayyorlaganlarga bo'lgan hurmatga asoslangan.



O'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ham e'tiborni qaratish lozim. Maktabgacha yoshdagi va kichik yoshdagi bolalar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishda mustaqillikni namoyon qila boshlaydilar. Bolaning qiziqishi, kundalik harakatlariga e'tibor berish kattalarga bolaga har bir harakatni tashkil etadigan operatsiyalarning ma'lum bir ketma-ketligini, vazifani tez va tejamkor bajarishga yordam beradigan usullarni tezda o'rgatishga imkon beradi. Agar e'tibor berilmasa noto'g'ri harakatlar avtomatlashtiriladi, bola beparvolikka o'rganadi. [5]

Tarbiyaning muhim omili - bu tengdoshlar guruhidir. Bu erda bolalar ijobiy misollarni kuzatadilar, taqqoslashni o'rganadilar hamda qiyinchiliklarga duch kelganda yordam olishlari mumkin bo'lgan guruhdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar madaniy-gigiyenik ko'nikmalarining shakllanishida doimiy konsultatsiyaga muhtoj. Ta'lim ishlari tizimidagi o'zgarishlar, ko'nikmalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga yetarlicha e'tibor bermaslik ularni tezda yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli bolalarga doimiy ravishda eslatib turish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buni guruhlarda o'tiladigan mashg'ulotlar orqali, o'yinlar orqali ham amalga oshirsa ham bo'ladi. [2]

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish orqali bolaga boshlagan ishini oxirigacha yetkazish, ishini samarali bajarishga o'rgatiladi. Masalan, ular nafaqat kiyimlarni yechibgina qolmay, balki har bir narsani old tomonga burab, chiroyli qilib taxlash va osib qo'yishni bilishlari lozim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida hozirda barcha guruhlarda mukofotlash texnikasidan foydalanadilar. Bolani o'z vaqtida maqtash juda muhim, lekin u doimo uni maqtashni kutmasligi uchun uni suiiste'mol qilmaslik kerak. Kattalar talablarini bajarish xatti-harakat normasiga, bolaga bo'lgan ehtiyojga aylanishi kerak.

Bolalarning madaniy-gigiyenik ko'nikmalarini tarbiyalashda o'yin texnikasi alohida o'rin tutadi. Pedagoglar o'yin texnikasi yordamida bolalardagi kundalik hayotda rivojlangan ko'nikmalarni mustahkamlaydi. [9]

O'yin uslubiga alohida e'tibor berilishi kerak, chunki o'yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyatidir; o'yin orqali bola yaxshi eslab qoladi va sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatadi. O'yin bolaga atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini o'rgatish jarayonida pedagoglar didaktik o'yinlardan foydalanadilar: "Qo'g'irchoq nimaga muhtoj?", "Bu nima?", "Nam yeng va sochiq", "Nopok va toza qo'llar", "Sovun qanday shaklga ega?". Bunday o'yinlar natijasida bolalar o'z yoshiga qarab madaniy-gigiyenik ko'nikmalarga ega bo'ladilar, mustaqil ravishda bolalar bog'chasida va uyda yoshiga mos gigiyenik muolajalarni bajaradilar, mustaqil ravishda yoki kattalarning eslatmasidan so'ng, ovqatlanish, yuvinish paytida o'zini tutishning oddiy qoidalariga rioya qiladilar, gigiyena qoidalariga rioya qilish zarurligi to'g'risida elementar tushunchaga ega bo'ladilar. [8]

Bu borada ota-onalar ham ko'pgina tushunchalarga ega bo'ladilar. Bular:

- ota-onalar o'z farzandlarida madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash masalalari bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalari bilan faol hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar
- bolaning madaniy-gigiyena ko'nikmalarini rivojlantirishdagi yutuqlari natijalariga katta qiziqish bildiradilar;
- bolalarida madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash uchun sharoit yaratib berishga o'rgadilar;

#### **Foydalanilgan adabiyotlar royxati:**

1. Tixomirova L.F. "5 - 8 yoshdagi bolalar uchun sog'liqni saqlash darslari", Yaroslavl, 2003 y.
2. Kartushina M.Yu. "Biz sog'lom bo'lishni xohlaymiz: tayyorgarlik guruhi bolalari uchun sog'lomlashtirish va ta'lim faoliyati" - M., 2004.
3. Zaytsev G.K. Moydodirning darslari. SPb. 1997 yil.
4. Sigimova M.N. "Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida o'zlari haqidagi g'oyalarni shakllantirish." Volgograd. 2009 yil.
5. Belostotskaya E. M. "3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashning gigiyenik asoslari" .- M.: Ta'lim, 1991.
6. Afonkina Yu.A., Uruntaeva G.A. "Chaqaloqni gigiyena va o'zini o'zi parvarish qilish bilan qanday tanishtirish kerak", 1997 y.
7. Zebzeeva V.A. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida rejim jarayonlarini tashkil etish", 2007 y.
8. Qodirova M. , (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI.
9. Qodirova M. , (2020). Роль занятий в формировании и развитии способности размышления у детей. Архив Научных Публикаций JSPI.



## ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA MEDIA TEXNOLOGIYALARNI FANLARNI O'QITISHDA JORIY ETISHNING USTUVOR AHAMIYATI

**Abduvoxidov Safar**

Samarqand Davlat Universiteti geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Raimov Sherbekjon Ismatillayevich**

SamDU huzuridagi aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan

maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Telefon: +998 94 470 09 94 sherbekjonraimov021@gmail.com

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy axborot telekommunikatsiyalari yuksak taraqqiy topgan jamiyatimizda, ta'lim tizimini yangicha bosqichga olib chiqishning dolzarb masalalari va ularning yechimida yangi axborot telekommunikatsiy tizimidan foydalanishning ilmiy va amaliy yechimlari. bu yo'lda mediata'lim metodidan foydalanishning samarali natijalari talqin etilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning PF-5712 va PF-5847 sonli Farmonlarida belgilangan rejalarni amalga oshirish, ta'lim tizimidagi islohotlarni amaliyotga tadbiiq etishda muhim metodik vositalarni joriy etish va tashkiliy choralari keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Mediata'lim, inklyuziv ta'lim, "Badiiy-immitatsiyali", "Tasviriy -immitatsiya", PISA, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, An'anaviy texnologiyalar.*

Bugungi asrimiz o'zining shiddatli rivojlanish tendensiyasi bilan o'tgan asrlardan keskin farq qilmoqda. Yer yuzasidagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zgarishiga, yangi bosqichga o'tishiga jamiyatda yuksak ahamiyat kasb etib kelgan va kelayotgan ilm-fan yutuqlari orqali erishilmoqda. Hayotimizning barcha jabhalariga zamonaviy vositalarning kirib kelishi esa odatiy tartibdagi turmush-tarzimizning ham o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Xususan buni biz bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida bo'layotgan chuqur o'zgarishlardan ham ko'rib guvohi bo'lib turibgina qolmasdan balkim, ishtirokchisi sifatida ham o'z faoliyatlarimizni olib bormoqdamiz. Mamlakatimiz ta'lim tizimini yuksak darajada rivojlantirish orqali kelgusida jamiyatimizni yanada taraqqiy topishi, jahon mamlakatlari ichida obro' etiborga ega bo'lishi, xalqimizning yanada farovon turmush kechirishiga erishishi bugungi ta'lim tizimimizdagi tub islohotlarning jadallik bilan hayotga tadbiiq etish orqaligina erishishimiz muminligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu maqsadda Prezidentimizning 2019-yil 29-aprelida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712 sonli farmonida yurtimizda ta'lim tizimini isloh etishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Konsepsiya xalq ta'limi tizimining uzoq muddatli rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, jumladan:

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiiq etish;

- xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

- xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;

- yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

- yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiiq etish;

- xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta



ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib boorish[1].

Umuman olganda ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va bu yo'lda qilinishi kerak bo'lgan ishlarni kompleks urganib chiqib, bosqichma-bosqich hayotga tadbiiq etishda pedagoglarning malakasi, dars o'tish metodikasini oshirish eng muhim ustuvor bosqichlardan hisoblanadi. Chunki hozirgi tezkor rivojlanish va axborot almashinish davrida ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim vositalarini olib kirish, hamda ilg'or ta'lim metodlarini shakillantirmasdan turib ko'zlangan maqsad sari erishib bo'lmaydi. Chunonchi mamlakatimizda ta'lim sifatini yangicha formatdagi, zamonaviy media texnika vositalari orqali har bir fanni predmetini chuqur urganish, o'quv-ilmii va amaliy mashg'ulotlarni hamohang uyg'unlashtirgan holda chuqur urgatib borish, kelgusida kutiladigan natijalarga olib boruvchi asosiy omil ekanligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bilamizki hozir jahonning yetuk rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim tizimi va ular erishayotgan yutuqlar XXI asr svilizatsiyasini yaratmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim tizimini baholashning PISA (The Programme for International Student Assessment) - Xalqaro o'quvchi talabalarni baholash tizimidan yuqori o'rinlarni egallayotganligi bejiz emas. Ayniqsa Singapur, Janubiy Korreya, Yaponiya, Shvetsiya, Germaniya, Kanada va boshqa rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidagi tub islohotlar zamonaviy talim vositalaridan, innovatsion texnologiyalardan o'rinli foydalangan holda o'zlarining yuksak taraqqiyot strategiyalariga tezlik bilan erishmoqda. Shu o'rinda mamlakatimiz ta'lim tizimidagi islohotlarda yuqorida ta'kidlanganidek 2030 yilga borib O'zbekiston ham PISA xalqaro dastur reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ekanligi belgilangan. Ammo bunday yirik natijaga erishishda bir qancha muommolar borki ularning yechimini hal etmasdan yuqori natijaga erishish mushkul. Xalq ta'limi tizimiga oid qonunchilikda, institutsional rivojlanishda, maktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiya berishda ayrim bo'shliq va kamchiliklar mavjud, shu jumladan:

- mahalliy davlat hokimiyati organlari umuta'lim muassasalari faoliyatini chuqur tahlil qilmasdan, faqatgina statistik va boshqa ma'lumotlarni to'plash bilan chegaralanayotganligi joylardagi haqqoniy holatni aniqlashga to'sqinlik qilmoqda;

- davlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, umumta'lim muassasalarini boshqarish, ishlarni rejalashtirish va tashkil etish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi pastligi qabul qilinayotgan qarorlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ushbu jarayonni tezkor kuzatib borish imkonini bermayapti, umumta'lim muassasalari o'qituvchilarining 14 foizini o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tashkil etmoqda;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarning mazmunan eskirib qolganligi, shuningdek pedagogik amaliyotning yuzaki o'tilishi bo'lajak pedagogning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- pedagoglarning metodik ta'minotini yaxshilash lozim;

- darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo'qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo'lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta'sir etmoqda;

- davlat ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo'lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda;

- foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish talab etilmoqda;

- xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish jarayoni metodik yordamga muhtoj;

- xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim dasturlari yetarli darajada rivojlanmagan, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari dasturlarida o'qituvchilarning inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus tayyorgarligini ta'minlash lozim;

Shu maqsadda Prezidentimiz Farmonida ta'lim tizimidagi bir qancha dolzarb masalalarning maqsadli yechimlari ishlab chiqilgan bo'lib bular:

- xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment)



umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish;

zamonaviy darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini yaratish;

- umumta'lim maktab kutubxonalarini o'quvchilar mustaqil tayyorlanadigan zamonaviy (smart) markazlarga aylantirish maqsadida ularning foydali maydonlarini kengaytirish va moddiy-texnik jihozlash, yagona axborot tizimiga birlashtirish, shuningdek O'zbekiston Milliy kutubxonasi elektron resurslariga ulanish orqali ularning rolini oshirish;

- ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yangi, shu jumladan muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish;

- o'quv muddatlarini o'zgartirmagan holda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;

- zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida umumta'lim davlat ta'lim standartlari tizimini muntazam takomillashtirib borish; [1]

Yuqoridagi ta'lim tizimidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarda har bir fan o'qituvchilari o'z fanlarining yuqori samamradorlikka erishishlarda asosiy vosita sifatida media texnologiyalarni ta'lim jarayonlariga tizimli joriy etish orqali tezkor zaruriy natijalarga erishishi mumkin deb hisoblaymiz.

**Media ta'lim** interfaol, o'quvchilarga individual ta'sir etadigan metod sifatida ta'lim jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. *Media ta'lim metodi o'quvchilarni shaxsiy fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish uni qayta ishlash, analiz va sintez qilish, shaxsiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.*

Auditoriyalarga matbuot, televidenie, radio, kino, video va internetlar olib kirilmoqda. Bularning barchasi **media darslar nomi bilan ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam bermoqda.**

#### **Media darslarni quyidagi metodik imkoniyatlar va afzalliklarga ega:**

- o'quv jarayonida dars sifati, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday jarayonda bir vaqtning o'zida o'qituvchi nazariy axborotlarni berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamonaviy texnika ta'lim vositalarida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv ob'ektlarini va voqealarini modellashtiradi, uni avtomatik ravishda test ketma-ketligida namoyish etadi. Tasvirini tushiradi;

- o'quv mehnat faoliyatlarini tashkil etishda kompyuter texnikalarini qo'llash, foydalanish imkoniyatini tug'diradi. Shaxsan o'zlari o'quv materialini amaliyotda sinab, bajarib borish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- talabaning yakka tartibda ishlagan holda qiziqish va ijodiy ishlarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi;

- multimedia texnikasi ularning o'quv mazmunini o'zlashtirishlariga qiziqishini yanada oshiradi;

- o'quvchilarda ko'rgazmali va obrazli ta'sirda fikr yuritishga, motorik va verbal kommunikativ ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi;

- axborot bilan ishlash, (axborot qidirish, zarurlarini ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish. Axborotlardan mazmunni tushunish, mantiqiy yaqinlarini ajratishga o'rganadi.

Shular asosida axborotni olish madaniyati shakllanadi.

*Media ta'lim metodining bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam berish, oddiy yo'nalishlardagi media axborotlar tilini o'rganish; talabani badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, media matn (tekst)larni malakali tahlil eta olish, o'rgatish va qabul qilish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.*

Media ta'limning asosiy mazmuni media madaniyat tilini, uning tarixini bilish (kino san'ati, badiiy televidenie va badiiy media) material tekstlarini tushunishdir. Uning pedagogik strategiyasi media matnlarni badiiy tahlil qila olish, unga interpretatsiya asosida baho bera olishdan iboratdir. Shuni aytish kerakki, media ta'lim qanday shakllanadi, u bir haqiqatni ifodalaydimi, kimning manfaatini ko'zlaydi, uning mazmuni nimalardan iborat va o'quvchilar uni qanday qabul qiladilar?

*Lekin shuni yodda tutish kerakki, media ta'lim metodining markazida talaba shaxsi turadi, uning qiziqish, xohish, istaklari hisobga olinishi, olingan axborotlarga tanqidiy ko'z bilan qarab, ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish kerak.*

Media ta'lim metodi haqidagi Rossiya va chet ellik olimlar fikriga ko'ra, media ta'lim ham tarbiyaviy, ham ta'limiy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarni o'quv-bilish jarayonida kreativ



fikrlashga o'rgatadi.

Media ta'lim metodining o'quv-bilish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- media ta'lim tarixi haqidagi bilimlar, uning tuzilish nazariyasini o'rganish-o'zlashtirish;
- media matn (tekst)larni ongli qabul qila olish, uning tilini bilish va "o'qita olish" shu haqida tasavvurlarini kengaytirish, ko'rish orqali xotirasini mustahkamlash, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy, obrazli, muammoli fikr yuritishni o'rganish;
- media ta'lim materiallarini kreativ fikrlash orqali amaliyotda foydalanishdan iborat.

Media ta'lim metodining eng muhim vazifalaridan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni tobora jadallashib borayotgan axborotlar oqimida har xil axborotlarni olish, tushunib etish, uni inson psixikasiga ta'sirini bilish va undan to'g'ri, maqsadli foydalanishga olib keladi. Media ta'lim metodi orqali olingan axborotlarni integratsiya qilish asosida shaxsiy fikrini bildirish va qayta olishga chorlaydi. O'z fikrini erkin bildirish, shaxsiy rivojlanish, turli informatsion hurujlarga qarshi fikr bildirish orqali uning ijtimoiy jamiyatdagi faolligi oshadi. Media ta'lim metodi o'quvchilarda axborotlardan faol va to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantiradi. O'quvchilar shu orqali berilayotgan axborot haqida erkin va faol fikr yurita boshlaydilar.

Media ta'lim metodida o'quvchilar kreativ fikr yuritadilar, ya'ni yangi tushunchalarni o'zlashtira boshlaydilar. Jumladan, ular "fabula", "syujet", "mavzu", "konflikt", "kompozitsiya", "kadr", "plan", "montaj" kabi tushunchalarni o'quv jarayoniga aloqadorlikda tushunib, amalda qo'llab, o'zlashtirib boradilar.

Shuning uchun ham media darslar:

- "Badiiy-immitatsiyali" – kichik ssenariyalar, minissenariya, media-matnlar tuzish, uni interfaol ta'lim metodida namoyish etish;
- **Teatrlashgan vaziyat hosil qilish**, (media matn asosida ayrim epizodlarni inssenirovka qilish, media matn jarayonini namoyish etish);
- **Tasviriy-immitatsiya tayyorlash** (afishalar yaratish, fotoko'rgazma, ma'lum mavzuda asarlardagi rasmlarni namoyish etish) kabilarni tushunish, qo'llay olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Yuqoridagi didaktik materiallarni tayyorlash, namoyish etish, tahlil asosida xulosa qilish, o'quvchilarni emotsional qabul qilish orqali nafis san'atni tushunishga olib keladi. Bu holat o'quvchilarni umumintellektual rivojlanishida, bilim olishi, tarbiya topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Media ta'lim metodlari asosidagi darslar berilayotgan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirib olish jarayonida quyidagi ikki komponentlar ishtirokini ta'minlaydi.

1. Media ta'lim darslarida kompyuterlar universal holda qo'llanishi va ishtiroki bilan xarakterlanadi.

2. An'anaviy texnologiyalar vositalari yoniga dasturli vositalar to'ldiruvchi bo'lib kiradi. U holda ayrim predmetlar, mavzularni o'qitishga, o'zlashtirishga qulay muhit yaratadi. Unda ta'lim mazmuni matni aniq, ravon shakllantirilgan bo'ladi. u ta'lim mazmuni tasvirlangan holda sxema, rasmlar, tablitsalar, videofragmentlar, ovozli, animatsion ta'minotlar bilan namoyish etiladi.

Yuqoridagi faoliyatni amalga oshirishda kompyuter va dasturlar bir-biri bilan uyg'unlashgan, moslashgan holda bir-birini to'ldirishi kerak; ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, o'qitish metodlari, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati muvofiqlashtiriladi. Bunday holda tashkil etilgan media ta'limning didaktik prinsiplari, imkoniyatlari kengayadi, boyib boradi. Bu esa ta'limni yangi prinsip – individuallashtirilgan, faollashtirilgan holda tashkil etishni ta'minlaydi.

Kompyuterlashtirilgan darslarning eng oddiy turi mashg'ulotni taqdim etish texnologiyasidir. Bu usulda dars o'tish uchun o'qituvchi ovoz xaritasi va kolonkasi mavjud bo'lgan kompyuter. multimedia proektori va MS Power Point dasturi yordamida o'tilajak dars uchun kompyuterda slaydlar yaratiladi. Slaydlar ma'lum mavzuni yorituvchi matn, rasm, jadval, animatsiya effektlari, o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun testlar, ovoz, videorolik va hokazolardan tashkil topadi. Ular mantiqiy ketma-ketlikda biriktiriladi. Slaydlarni almashtirish payti - interval belgilanadi. Talaba tasvirni ko'radi va eshitadi. Bunday dars o'tishning texnikjihatdan ikki usuli mavjud:

1-usul - agar kompter tarmog'i bor bo'lsa, har bir talaba o'z monitorida ko'radi.

2- usul agar multimedia proektori mavjud bo'lsa, tasvirlashni ekran yoki doskaga tushirib ko'rsatish mumkin.[2].

Media ta'lim metodi asosidagi darslarning eng afzallik tomoni shundaki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning hozirgi axborot oqimlari jadallashayotgan bir vaqtda mustaqil ijod qila olish imkoniyatlari, qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Shu munosabat bilan media ta'lim metodi



asosidagi darslar mazmunini belgilash, tashkil etishda faqatgina predmet yoki mavzu mazmuniga qarab qolmay, balki uning ta'limiy, tarbiyaviy, umumrivojlantiruvchi tomonlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi. ular axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga yo'g'rilgan bo'lmog'i, ya'ni, kerakli axborotni olish qobiliyatini, ularni yangi texnikalar yordamida qayta ishlash, amaliyotda qullash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi talab etiladi.

Media ta'lim metodi asosidagi darslar kompyuterlashtirilgan sinflarda, multimediani proektorlar bilan jihozlashda o'tkaziladi. Kompyuterlashgan sinflarda o'quv faoliyatining namunali-samarali kechishi uchun u erda qo'shimcha joylashtirilgan o'quv stollaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu holat sanitar-gigienik me'yorlarga rioya etish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqa joyda tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Agar o'qituvchi ko'rgazmali tasvirlardangina foydalansa, ularni bir komplekt kompyuterda ekranga namoyish etish bilan cheklanadi. Auditoriyada o'quvchilar bilan ishlashni quyidagicha tashkil etish mumkin:

- video fragmentlarni frontal ko'rish;
- topshiriq, mashqlarni bajarishda amaliy mashg'ulotlarni individual ishlash;
- umumiy o'quv loyihalarini modeli eksperimentni bajarishda kichik guruhlarda ishlash;
- media ta'lim metodi asosida darslarni tashkil etishda ham o'quv jarayonining hamma komponentlari o'z aksini topishi, faoliyat kompyuter va kompyutersiz almashinib turishi mumkin;
- faollashtirish (o'quv materialini takrorlash, materialni birinchi bora o'zlashtirish), kompyuterda yoki kompyutersiz;
- bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish (o'quv axborotlari blokining mohiyatini bilib, tushunib olish va uni mustahkamlash) kompyuterda yoki uning ishtirokisiz;
- o'quv materiallarini amalda qo'llay olish, o'quv materialini o'zlashtirganligini nazorat qilish: kompyuter va kompyutersiz variantda.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, media ta'lim metodi asosida darslarni tayyorlash, samarali o'tkazish o'qituvchilardan quyidagilarni talab etadi:

- yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lish;
- zamonaviy metodik tayyorgarlikka ega bo'lish;
- o'quvchilar bilan muloqotga kirishish, chuqur psixologik va pedagogik bilimlarga ega bo'lish;
- yuksak ma'naviy va ma'rifiy madaniyatga ega bo'lish;
- zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirib olish va Internetdan foydalanish;
- o'quv faoliyatiga innovatsiya, pedtexnologiya, interfaol metodlarni o'zlashtirish orqali o'quv jarayonini tashkil eta bilishi talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 29-aprelida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712 sonli farmoni.

2. Ismoilova Z.K., Musayev R. S., Shayusupova A. A., "O'qitishning zamonaviy texnologiyalari" O'quv qo'llanma ., T-2010 TIMI.

3. Internet manbalari:

4. [www. google. uz](http://www.google.uz), // [ziyonet.uz](http://ziyonet.uz) //



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHLARINI O'STIRISH

**Botirova Hilola Qudratovna**  
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani  
28-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'quvchilarning fikrlash jarayonini o'stirishda foydalanish mumkin bo'lgan metodlar to'g'risida fikrlar bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ijodiy izlanish, aql-idrok, nutq ko'nikmalari, bayon yozish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini o'stirish orqali ijodiy nazorat ishlari samarasini oshirish yo'llari. Ona tili - nutq o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan, birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql -idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarning vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi, demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida ro'l o'ynaydi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi hislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy fazilatlarini bilan bogliq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til normalarini, ya'ni imloviy va punktuatsion savodli yozuvni, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan anglash tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar na'munasi bilam tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish. Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va boshlang'ich sinflar ona tili dasturida aks etadi. Mantiqiy fikrlash esa, unga hamohang rivojlanib boradi.

Mantiqiy fikrlashning pedagogik tomonlarini o'rganish o'quvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi mashg'ulotlarning tashkil qilish shakllari, metodlari, vositalari, omillari va shart-sharoitlarini ishlab chiqish va tajribalar asosida ularning samaradorligini baholashdan iborat bo'ladi. Ko'plab tadqiqotchilar takidlashadiki, maktabdagi talimning eng asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda mantiqiy amallarni bajarish bo'yicha yetarli darajadagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni turli mantiqiy fikrlash usullariga o'rgatish, mantiqiy bilimlar bilan qurollantirish, olgan bilimlarini o'quv va amaliy faoliyatlarda maqsadli qo'llashga o'rgatishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan mantiqiy bilim va usullarni o'zlashtirish masalasi V.S. Ablova, Y.L. va T.K. Kamolova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mazkur olimlarning tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishning to'g'ri tashkil qilinishi natijasida bolalar mantiqiy fikrlash bo'yicha ko'nikma va malakalarini (hususan, sinflarga ajratish, umumlashtirish, o'z xulosalarini yetarli argumentlar bilan asoslash va h.k.) juda ham tez egallaydilar. Shu bilan birga pedagogika nazariyasida bunday talim jarayonini qanday qurish masalasida yagona qarashlar mavjud emas. Bir qator olimlar (V.G. Beylinson, N.N. Pospelov, M.N. Skatkin) mantiqiy usullar fan mazmuniga yashiringan va o'quvchilar fan bo'yicha talim olish jarayonida, berilgan obrazlar asosida to'g'ridan-to'g'ri mantiqiy fikrlashga o'rganadilar deb hisoblashadi. Bu savolga boshqacha yondoshuvda o'quv fanlarini o'rganish orqali mantiqiy fikrlashga o'rganishning samaradorligi kam bo'ladi, bunday usul mantiqiy fikrlashning hamma usullarini o'rganish uchun yetarli emas, shuning uchun mantiq ilmiga bag'ishlangan alohida o'quv fanlarini joriy qilish kerak deb hisoblashadi. Yana bir guruh pedagoglar (D.D. Zuyev, V.V. Krayevskiy) o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini konkret o'quv fani mazmuniga kirgan mantiqiy amallarni tushuntirish orqali rivojlantirish mumkin degan g'oyani ilgari suradilar.



## INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING XALQ TA'LIMI TIZIMIDA RIVOJLANISH TARIXIDAN

**Eshmurzayeva Sabohat Jamanazarovna**

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani  
59-umum ta'lim maktabi informatika va axborot  
texnologiyalari fani o'qituvchisi

**Lolayeva Gulchehra Egamberdiyevna**

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani  
23-umum ta'lim maktabi informatika va axborot  
texnologiyalari fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada mamlaktimizni axborotlashtirish va uni tartibga solish bo'yicha Hukumatimiz tomonidan olib borilgan ishlar, masofaviy ta'lim tizimi haqida nazariy va amaliy tushunchalar, masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim tizimini joriy etilishi bo'yicha muammolar, Hukumat qarorlari, masofaviy ta'limning mamlakatimiz xalq ta'limi tizimiga kirib kelishi va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** axborotlashtirish, ta'lim tizimi, masofaviy ta'lim tizimi, masofaviy o'qitish.

Jamiyat rivojlanib borgan sari, ushbu jamiyatning rivojiga munosib kadrlarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortib boradi. Bugungi kunda ta'limning sifatini oshirish talabiga qaratilgan maqsadlar negizida yuksak ma'naviyatli, bilimdon, Vatanparvar, o'z kasbiga sadoqatli hamda mehnatsevar kadrlarni shakllantirish vazifasi yotibdi. Bu maqsad esa o'z-o'zidan amalga oshadigan jarayon emas, balki uzoq vaqt tinimsiz mehnat, izlanishlar va samarali natijalari evazida o'z yechimini topa oladigan jarayon bo'lib hisoblanadi.

Muvaffaqiyatli ta'limning eng muhim belgisi sifatida erkin va mustaqil yurt farzandlari ehtiyojini qamrab oladigan va hech kimdan kam bo'lmagan insoniyat taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan farzandlarni tarbiyalay oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash 90-yillar bo'sag'asidayoq davlatimiz tomonidan asosiy strategik masala deb qo'yilgan edi.

Umumta'lim maktablarni axborotlashtirish jarayoniga ham qisqa vaqt o'tgan bo'lsada, o'quv jarayonida foydalaniladigan AKT vositalari respublikamizning barcha ta'lim muassasalariga kirib bordi. Ushbu davr ichida ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)ni joriy etish bo'yicha juda ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi – maktablar zamonaviy kompyuter sinflari bilan jihozlandi, barcha fanlardan elektron o'quv-resurslari yaratildi va fanlarni o'qitishda ulardan samarali foydalanib kelinmoqda.

Bugungi kunda ko'plab davlatlar AKT'ni ta'lim jarayoniga joriy etishdagi eng dolzarb muammoga duch kelmoqdalar, u ham bo'lsa – fan o'qituvchilarining AKT-savodxonligi va fanlarni o'qitishda AKT vosita va metodlaridan samarali foydalanish bo'yicha tayyorgarligidir. Shu jumladan, informatika fani mutaxassislarni kaspiy kompetentligini yanada oshirish bugunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Albatta, informatika o'qituvchilarining kasbiy bilimlarini boyitish va yangilash borasida malaka oshirish institutlarining o'rni beqiyosdir. Aynan informatika o'qituvchilari respublikamizga informatika fanining kirib kelishi tarixi va o'quv jarayoni, hozirgi kundagi shakllarini o'quvchi-yoshlarimizga yetkazishlari zarur. O'zbekistonda ko'plab sohalarda elektron hisoblash texnika vositalarining kirib kelishi munosabati bilan ta'lim jarayonini ham kompyuterlashtirish va O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga yangi axborot texnologiyalarni joriy etish muammosi yuzaga keldi.

Shu munosabat bilan maktablarni axborot texnologiyalari bilan jihozlash, umumta'lim maktablarida o'quv jarayoni tashkil etish, o'quv dasturlar, darsliklar ishlab chiqish, pedagoglarning AKT savodxonligini oshirish muhim masalalardan biriga aylana boshladi. O'zbekistonda axborotlashtirish sohasini muhim siyosiy omil sifatida qarash hamda ishlab chiqarish, boshqaruv, ta'limda, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ko'plab sohalarda yangi axborot texnologiyalari vositalarini kiritish hamda amaliyotda qo'llashga oid vaziyatlar yuzaga kela boshladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, albatta, o'qituvchi va o'quvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirishga erishish dolzarb masalalarda biri deb etirof etila boshlandi. Ushbu masalalarni hal etish borasi ta'lim tizimi boshqaruvida bir qator vazifalarni qo'ydi. Maktablarda kompyuter



savodxonligi oshirish bo'yicha aniq dastur va rejalar ishlab chiqqan holda fanni o'qitilishi va darsliklar ishlab chiqishni, bu esa, o'z navbatida, ushbu fanni o'qita oladigan kadrlarni tayyorlash va ularning uzluksiz malakalarini oshirib borishni talab etadi. Ushbu masalalarni hal qilish va amaliy natijalarni tahlil etish uchun kompyuter texnik vositalari bilan ta'minlash hamda natijalar asoslanib, eng samarali axborot texnologiyalari qurilmalarini tanlash va unda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Informatika – uzoq tarixga ega bo'lgan, inson faoliyatining turli sohalari bilan aloqador axborotlarni to'plash, saqlash, uzatish, qayta ishlash qonunlari va metodlarini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. O'zbekistonda mazkur fanning taraqqiyotida «Kibernetika» ilmiy ishlab-chiqarish birlashmasining yetuk olimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademiklari V.K.Qobulov, F.B.Abutaliyev, M.F.Bekmurodov, N.B.Bondarenko, M.M.Komilovlar va boshqa bir qator olimlarning hissaları katta bo'ldi. Mustaqil O'zbekistonda kibernetika va informatika fanining taraqqiyot yo'li va bu fanlarning rivojlanish istiqbollari o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbekiston Respublikasida tarmoqlarni avtomatlashtirish ishlari muntazam ravishda olib borilgan. Kibernetika va informatika sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va xalq xo'jaligiga joriy etish maqsadida, Markaziy Osiyo Respublikalari ichida birinchi marta 1956-yilda akademik M.T.Urozboyev tashabbusi bilan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibida, V.I.Romanovskiy nomli Matematika instituti qoshida Hisoblash texnikasi bo'limi ochildi. Unga V.K.Qobulov rahbar etib tayinlandi va 1958-yil 30-dekabrda respublikamizda ilk bor, «Ural» EHM ishga tushirildi, bu mamlakatimizda birinchi EHM edi. Keyinchalik, 1962-yilda Toshkent shahrida M-20 rusumli (Kazon avtomatlashgan mashinalar zavodi mahsuloti), yarim o'tkazgichli M-220 rusumli, «Minsk 22», «Ural 2», «BSM 6-1», «BSM 6-2» rusumli EHMLar ishga tushirildi.

Tadqiqotchi-olim A.G'.Xayitov o'z dissertatsiya ishida: «Markaziy Osiyo mintaqasida, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarkibida hisoblash markazi bo'lgan Kibernetika instituti negizida 1966-yil «Kibernetika» ilmiy, ishlab-chiqarish birlashmasi ochildi. Bu birlashmada hukumat va jamoat tashkilotlarning buyurtmalariga ko'ra, ilmiy-amaliy ishlar amalga oshiriladi. 1978-1979 yillarda «Kibernetika» ilmiy ishlar ishlab-chiqarish birlashmasi negizida markazlashgan konstruktorlik-texnika byurosi, shuningdek, tajriba-sinov zavodi ochildi. Bu ilmiy-amaliy muassasalarda respublikamizda ko'zga ko'ringan olimlar (V.K.Qobilov, F.A.Abutolipov, S.Artikova, T.B.Bo'riyev, T.F.Bekmurotov, B.M.Bandarenko, X.Z.Ikramova, S.Kamilov, S.Karimberdiyeva, R.R.Sa'dullayev va boshqalar) faoliyat olib borishdi» – deya takidlab o'tgan.

Xalq xo'jaligidagi turli masalalarni hal etishda algoritmlashtirish nazariyasini yaratish va rivojlantirishga akademik V.K.Qobulov boshchiligidagi birlashmaning yetakchi olimlari O'zbekistonda kibernetikaning tarkib topishi va rivojlanish bosqichiga ulkan hissa qo'shdilar. Tasvirlarni tekshirib bilish va sun'iy intellekt nazariyalari bo'yicha katta maktab yaratgan akademik M.M.Komilov, matematik modellash va hisoblash eksperimenti, matematika va mexanikaning murakkab vazifalarini hal etishning miqdoriy-tahliliy usullari bo'yicha akademiklar F.B.Abutaliyev, B.A.Bondarenko, T.Bo'riyev, axborotni qayta ishlash bo'yicha – akademiklar D.A.Abdullayev, M.F.Bekmurotov, kibernetika fanining turli yo'nalishlari bo'yicha maktablar o'zagini yaratgan professorlar T.A.Valiyev, O.M.Nabiyev, R.S.Sa'dullayev, Z.M.Solihov, N.A.Mo'minov ta'lim sohasini kompyuterlashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy izlanishlar olib borgan va bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan professor M.Ziyoxo'jayev va boshqalarning katta xizmatlarini ta'kidlash lozim.

Respublikadagi o'qituvchilarni shu yangi fan bo'yicha malakasini oshirish, qayta tayyorlash, o'quv-metodik adabiyotlarni tayyorlash, «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» kursining metodik ta'minotini ishlashda akademik V.Qobulov boshchiligidagi olim-pedagoglar jonbozlik ko'rsatdilar. Jumladan, T.Azlarov kabi amaliyotchi o'qituvchilarning metodistlik, tarjimonlik, muharrirlik yoki mualliflik sohasidagi ishlari fanni amaliy ahamiyatini oshirib, hayotga yaqinligini ta'minlab berdi.

Shuningdek, respublikamizda informatika o'qitish mazmunini takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy- tadqiqot ishlari olib borildi. 2001-yil aprel oyida «Kibernetika» ilmiy ishlab-chiqarish tasarrufida yangi axborot texnologiyalari markazi tashkil etildi. Mustaqil respublikamizda kompyuterlashtirishni rivojlantirish, yuqori texnologiyalarni samarali va sifatli darajada qo'llash hududimizdagi kompyuterlar bozorini kengaytirish va shunga o'xshash, yo'nalishlarda qator tadbirlar o'tkazildi va yangilari rejalashtirilib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda, «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» (IHTA) predmetini o'rta maktablarning IX – X sinflarida o'rganish



1985-1986 о'quv yilidan boshlab joriy etildi.

“Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” fani 1985 yil sobiq ittifoq ta’lim tizimida kiritilgan bo’lib shoshilinch tarzda tatbiq etilgan bo’lsada, O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida fanning izchil va tez rivojlanishi mustaqillik davrlariga to’g’ri keladi. 90-yillarda maktablarning atigi 30% eski rusumdagi “Pravest 8A”, “Elektronika”, “Yamaxa”, “Korvet” va boshqa ishlab chiqarilgan hisoblash texnikasidan iborat edi. Ularning aksariyati oq-qora va juda qiyin amallarni bajara ololmas edi.

Mustaqillik arafasida ushbu fanni o’qitilishi markaz taklif etgan darslikni tarjimai asosida tashkil etib kelindi. Bu kitoblarda asosiy g’oyalar to’liq nazariylashgan va o’sha davrdagi kompyuterlarni xorijda rivojlanganligi darajasidan ancha orqada qolgan edi. Vaholanki, ushbu davrda ham o’zbek olimlari jamlangan O’zbekiston fanlar Akademiyasi “Kibernetika” instituti va ko’plab mashhur olimlar Vasil Qobulov, Mahkam Ziyoxo’jaev, Mirsaid Aripov va boshqa zahmatkash olimlarni ilmiy ishlari ancha ilg’or hisoblanar edi.

O’sha murakkab davrlarda o’rta ta’lim maktablarda “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” fani tajriba sinov tariqasida akademik Sirojiddinov nomli fizika-matematika maktab-internatida va O’zbekiston fanlar Akademiyasi ilg’or maktablar qoshida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Yuqoridagi strategik yo’nalishlar asosida O’zbekistonda informatika ta’limini yangi ko’rinishini shakllantirish vazifasi ko’ndalang qo’yilgan edi. To’g’ri, 90-yillari garchang endigina mazkur fan besh yilgina o’qitilgan bo’lsaham, qisqa muddatda mustaqilligimizni dastlabki uch yilidayoq fanni ilmiy metodologik o’zagi akademik V.Qobulovni umumiy rahbarligida tashkil topib bo’ldi. Bunda T.Bekmuradov, M.Aripov, M.Ziyoho’jaev, A.Abduqodirov, T.Azlarov, B.Boltaev va boshqa olimlarning ham o’z hissalarini katta bo’ldi. Xalq ta’limi vazirligi tashabbusi bilan Respublika ta’lim markazi qoshida barcha fanlardagi kabi Informatika Ilmiy metodik kengashi tuzilib unda yuqorida keltirilgan olimlar bilan birga amaliyotchi o’qituvchilardan iborat kengash a’zolari shakllantirildi.

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 1993 yilda Informatika va hisoblash texnikasi asoslari fanidan birinchi milliy darslikni yaratish byurtmasi berildi. Ilmiy metodik kengash tomonidan bu topshiriqni ijrosini ta’minlash maqsadida olim, metodist, amaliyotchi o’qituvchilardan iborat ishchi guruhni shakllantirib ular oldiga uch oyda 8-sinfga IHTA darsligini hamda 9-sinf darsligini yaratish topshirig’i qo’yildi.

Shakllantirilgan mualliflar M.Ziyoxo’jaev, A.Abduqodirov, T.Azlarov, A.Daliev, B.Boltaev va O.Bobojonovlar tomonidan dastlabki darsliklar 1993-1994 o’quv yilida tajriba sinov tarzida umumta’lim maktablariga etkazib berildi. Natijada 1994-1995 o’quv yilida keng jamoatchilik fikrlari inobatga olinib darslik takomillashtirildi va asosiy darsliklar sifatida barcha o’quvchilarga etkazildi.

1996-yil 10-sinf uchun A.A.Abduqodirov muallifligida, 1999-yil 11-sinf uchun B.Boltayev M.Mahkamov muallifligida darsliklar yaratildi va nashrdan chiqarildi. Biroq ayrim murakkab bo’lgan mavzularni o’zlashtirishda o’quv-mavzu rejada belgilangan soatlarda kengroq yoritish bo’yicha muammolar yuzaga kela boshladi. Muammolarni bartaraf etish bo’yicha darslikka qo’shimcha ravishda, metodik qo’llanma, uslubiy tavsiyanomalarga ehtiyoj sezila boshlandi. Shu maqsadda, 1996-1998 yillarda olima S.Rahmonqulova muallifligida «IBM RS kompyuterida ishlash» ommobop qo’llanma chop etildi. 2002-yilda S.Rahmonqulova muallifligida «Kompyuter olamiga sayohat» kitobi boshlang’ich sinflar uchun qo’llanma sifatida tavsiya etildi va OTV moliyaviy ko’magida maktablarga tarqatildi. Taraqqiyot rivojlanishi bilan darsliklar o’quv rejalarida o’zgartirishlar kiritila boshlandi. N.Toyloqov o’z dissertatsiya ishida «Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun yangi avlod «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» darsligi uning mazmuni, maqsadi va o’quvchilar o’zlashtirilishi lozim bo’lgan talablar qaratildi, ya’ni 9-sinf o’quvchilari kompyuter grafikasi, axborotlar ombori, elektron jadvallar, kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari, dasturlash asoslari (Beysik algoritmik tili), amaliy dasturlash hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari bilan tanishadi» – deb takidlab o’tgan.

Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» (9-sinf uchun darslik. –T.: Ijod dunyosi, 2002. -152 b.), Informatika (O’qituvchilar uchun qo’llanma.-T.: Ijod dunyosi, 2002. 96 b.), «Основы информатики и вычислительной техники» (Учебник 9-класса. –T.: Ijod dunyosi.-152 s. 1- 2-nashrlari, 2002, 2004.), Informatika ham esaplaw texnikasi tiykarlari» (9-klassi uchun sabaqliq. –Nukus: «Bilim» baspasi. 2002, -152 b., qoraqolpoq tilida



darsligi tayyorlandi va chop qilindi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu fanni davr talabi asosida rivojlantirish, yangilash ishlari davom ettirilmoqda.

### **Foydalanilgan manbaalar**

1. Абуталиев Ф.Б. Некоторые вопросы околозвуковой динамики: Дис. ... канд. физ.-мат. наук/Тошкент, 1961. – 139-146 с.
2. Azlarov T.R. "Informatika va hisoblash texnikasi kursini milliy maktablarda o'qitishni takomillashtirishning metodik sistemasi. P.f.n. ... ol.uchun yozilgan dis. – Toshkent, 1993. 150 b; B. 28-39 .
3. Xaitov A.G'. Umumiy o'rta ta'limda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi hamda amaliyoti. P.f.d. ... ol.uchun yozilgan dis. – Toshkent, 2006. 245 b; B. 37-38 .
4. Toyloqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. P.f.d. ... ol.uchun yozilgan dis. – Toshkent, 1993. – 359 b; B. 159-168 b.
5. Ahmedov A., Tayloqov N. Informatika. AL va KHK uchun darslik. «O'zbekiton» nashryoti. -2004. -272 b.(3-nashri)
6. B.Boltayev, M.Mahkamov, A.Azamotov, S.Rahmonqulova. Informatika. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 5-sinf darslik. "Cho'lpon" nashriyoti – 2006 yil. -72 bet.
7. Umumiy o'rta ta'limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2017. 5-6 b.
8. Umumiy o'rta ta'limning informatika va axborot texnologiyalari fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2017. 29-30 b.(3 –ilova)



## TARBIYA JARAYONI MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA TAMOYILLARI

**G'afforova Gulmera Abdumajidovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

10-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

**Kalit so'zlar.** Tarbiya nazariyasi, Abdulla Avloniy, falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, demokratik, insonparvar, huquqiy, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».

Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtayi nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Tarbiya nazariyasi Sharq mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabilarning ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda xalq ta'limi tizimini boshqarish bilan uzviy bog'liq. Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obyektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat — yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiy g'oyasi Respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning vafo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlari, chunonchi, «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida mustaqil Respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan. Tarbiya — shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki histuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatla-



rini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi. Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbayini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi. Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri — o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. N.S. Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent, Moliya, 2003.
2. Pedagogika / O'quv qo'llanma. A. Munavvarov tahriri ostida. — Toshkent, O'qituvchi, 1996.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**Ibragimova Latofat Rahmatullayevna**

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

84 - maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

+998 94 256 46 40

**Annotatsiya:** ushbu maqolada innovatsiya tushunchasi, innovatsion jarayon, pedagogik yangilik, innovatsion faoliyat, nilufar gul, bilim, tarbiya tushunchalari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, pedagogik yangilik, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat.

**Innovatsiya** – (inglizcha “Innovation” – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir. Innovatsiya – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirishni va targ'ibotini o'rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart – sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

Ayni shu rivojlantiruvchi talim jarayoni o'quvchining ongini, tafakkurini rivojlantirishga hamda uning shaxsiy taraqqiyotiga keng imkoniyat yaratadi.

Matematikani o'qitish sistemasida masalalar yechish samarali mashq qilish turlaridan biridir. Masalalar yechish avvalo bolalarda mukammal matematik tushunchalarni shakllantirishi, ularning o'quv dasturida belgilab berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega.

Masalan: O'quvchida 14 ta rangli va 2 ta oddiy qalam bor. O'quvchida hammasi bo'lib nechta oddiy qalam bor?

Berilgan:


14 ta rangli qalam



Yechish:

$$14 + 2 = 16 \text{ ta}$$

2 ta oddiy qalam




Jami qalam nechta?

Javob: 16 ta

Bu masala orqali o'quvchilarda ayirish haqida tushunchani shakllantirish, mustahkamlash va yig'indini topishga doir bilimlar hosil bo'ladi. Masalalar yechish orqali o'quvchilarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tadbiq qilinadi, shu orqali mustahkamlanadi. Masalan, bilimlarning shaklanishida nazariyani amaliyot bilan o'qitishni turmush bilan bog'liq olib borish imkonini beradi. Masala yechish orqali xarid qilingan narsaning narxini, kvartira ta'mirlashning bahosi, poyezdga kechikmaslik uchun uydan qachon chiqish kerak, degan turli xildagi amaliy hisoblashlarni hal qilib beradi. O'quvchilar masalalarni yechayotganda turli xil matematik tushunchalar – son, arifmetik amal, qo'shiluvchi, yig'indi, qoldiq kabilar bilan tanishadilar, shuningdek atrof muhitdagi, fandagi, texnikadagi turli xil bog'liqli muammolar bilan tanishadilar va uni yechadilar.

Siz bilan bilim va tarbiya gulini hosil qilamiz. O'quvchilarga gul yaproqlari tarqatiladi. Unga o'quvchilar bugungi darsda qanday bilim, tarbiya olganliklari haqida fikrlarini izhor qilib yozadilar. Unda har bir o'quvchi individual ishlaydi.



Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayoni axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tshkil etish o'qituvchining bu faoliyatini amalga oshirish uchun tayyorgarlik darajasi. Innovatsion muammolarni hal etish muhim zamonaviy ilmiy fklash yo'nalishlariga qo'shish. Innovatsion jarayonlarni o'rganish. Innovatsion pedagogik muammolarni yechish ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning borish xussusiyatlari o'rganishdan iborat.

Innovatsiyani tanlashda pedagogik tizimda yaxlit pedagogik o'quv yurti, pedagogik nazariya, o'qituvchi, o'quvchilar pedagogik texnologiyasi, ma'lum shakl, metod, vositalar, boshqaruv maqsad va natijalar muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2006-2007 yillar (4-8-son).
2. Maktab va hayot jurnali. 2006-2007 yillar (3-7-son).



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS JARAYONLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

Sapayeva Durdona Ismoilovna  
Urganch shahri 18-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefoni: +998 91 4203737

**Annotatsiya:** Bu maqolada o'quvchilarning nutqini o'stirish ko'zda tutiladi. Avvalambor biz o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishimiz lozim. Bunda biz ko'proq xalq og'zaki nutqidan foydalanamiz. Ushbu maqolada dars jarayonlarida xalq og'zaki nutqidan o'rinli foydalanish usullari ko'rsatilgan. Xalq og'zaki nutqining har bir turi biz uchun juda muhimdir. Maqolada bu haqda ham fikr yuritiladi. Dars jarayonlarida xalq og'zaki ijodidan, jumladan topishmoqlardan foydalanish samarasi ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kitob o'qish, samarali o'qish texnologiyasi, tanqidiy fikrlash.

Bugungi kunda "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" uning tarkibiy qismi bo'lgan 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish "Davlat umum milliy dasturi" kabi muhim hujjatlar ta'lim tarbiya sohasiga jiddiy e'tabor berilganligi bilan ahamyatlidir.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 2005 yil 28 sentabr PQ -191 sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Jamoat ta'lim Axborot tarmog'ining tashkil etish to'g'risida ham ishlab chiqdi. Maqsadi aholining kompyuter va ma'lumotlarning etkazib berish uchun milliy Ziyonet tarmog'ining tashkil qilinishi.

"Maktabni kelajakka qo'yilgan poydevor" deb bejiz aytishmagan. A. Avloniy shunday degan "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'li maktab, kasblarning ichida eng sharafli o'qituvchi va murabbiy". Maktabda o'qish va o'qitish bu baxtdir. Mana shu qutlug' dargohda farzandlarimiz oq-qorani tanishadi, kamolga etishadi, ilm cho'qqilarini egallash uchun dastlabki parvozga shaylanishadi. Ularning har tomonlama etuk inson sifatida komil topishida bu mo'tabar maskanning o'z o'rnini o'z mavqei bor

Boshlang'ich ta'lim jarayoni juda murakkab jarayondir. Chunki bola bevosita o'yin faoliyatidan ta'limiy faoliyatga kirishadi. Qadim va narqiron O'zbek xalqi doimo ziyoga ilm-hunar egallashga intilgan. Xalq donishmandligida yoshlarni ilmli, hunarli qilib tarbiyalashga va kattalar tajribasini ularga sindirish masalasiga katta o'rin berilgan. Bu donishmandlik manbai bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalqimiz hayotining manzaralari, turmush tartibi, qadimgi urf-odatlar va marosimlarining o'zida aks ettirgan dostonlar, ertaklar, latifalar, tezaytishlar, topishmoqlar, maqollar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda, oilada bola tarbiyasida juda muhim vosita bo'lib xizmat qilib kelgan. Bugungi kunda ham xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanish dasturlar va qo'llanmalar yaratishga hozirgi kun pedagogika fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining kichik va qadimiy janiri hisoblanib, uning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Topishmoqni o'rganish unga javob topish orqali bolalar predmetlarni kelib chiqishi uning inson hayotidagi o'rnini va roli haqida tasavvur aega bo'ladi, ularning qiziqishi ortadi, ongi va tafakkuri o'sadi. Boshlang'ich sinflarda dars jarayonlarida topishmoqdan foydalanish orqali o'quvchilarning nutq boyiydi, takomillashadi. Ular ifodali, mazmunli o'qishga o'rganadilar. Topishmoqlarning matn mazmuni bilan bog'liq ravishda o'rganishi o'quvchilarning bir tomondan matn mazmunini to'liqroq tushunishi va yaxshi esda saqlashiga turtki bo'lsa, ikkinchidan, ularning darsdagi faolligini oshiradi, dam olish muhitini yaratadi, ekologik tarbiya beradi, ma'naviy-ahloqiy jihatdan kamol toptiradi. Yuqoridagilarga asoslanib, men noan'anaviy darslar o'tishda mavzuga mos maqol va topishmoqlardan unumli foydalanishga harakat qilaman.

Masalan: "Oy allasi" she'rida

Aytsalar oyim bizga,

Uyqu keladi ko'zga. (Alla)

"Kitob- bizning do'stimiz" matnida

Qat-qatqatlama,

Aqling bo'lsa tashlama. (Kitob)

Topishmoqlar darsliklarda turli tartibda berilgan, ayrim o'rinlarda matn mazmunini boyitib to'ldirilgan, bunda didaktikani izchillik, tizimlilik prinsipi amalga oshiriladi. Ayrim hollarda



topishmoqlar butun bir dars uchun berilgan. Bu darsni umumlashtiruvchi dars yoki sinfdan tashqari o`qish darsi sifatida uyushtirish ham mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki topishmoqning ta`limiy va tarbiyaviy ahamiyati mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Ularga javob topish ermak uchun emas, balki o`rganilayotgan bilimlar sistemasini taraqqiyoti uchun zarurdir. O`z tajribamdan kelib chiqib shu narsaga amin bo`ldimki, boshlang`ich sinf darslarida topishmoqlardan foydalanish darslar samaradorligini ta`minlash, o`quvchilarga ta`lim –tarbiya berishda muhim o`rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Boshlang`ich ta`lim” jurnali,2019-yil,2-son,12-bet.
2. “Mahoratli pedagog” jurnali,2018-yil,5-son,12-bet.
3. Topishmoqlar va maqollar, Toshkent-2018.
4. O`z ish tajribamdan



## MASOFADAN O'QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ASOSLARI

**Joldasova Kamila Jollibaevna**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi XTXQTMO  
hududiy markazi o'qituvchisi  
**Kazakbaeva Gawxar Bazarbaevna**  
Nukus shahar 49-sonli maktabning  
informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi usullarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil bilim olish jarayonini individuallashtirish, shu bilan birga masofali ta'lim tizimi texnologiyasini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari hamda masofali o'qitish texnologiyalari asosida o'quvchilarni o'qitishni jadallashtirishning dolzarbligi haqida aytilgan

**Kalit so'zlar:** Masofadan o'qitish, tarmoq texnologiyasi, o'quvchi, telekommunikatsiya internet tarmog'i virtual o'qitish .

Bizga ma'lumki, bugungi kunda ta'lim sohasi sifat va samaradorligini oshirishni zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim jarayonini didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish bosqichida ta'lim-tarbiya mazmunini o'zlashtirishning muammolarini yechishga qaratilgan zamonaviy ta'lim-tarbiya texnologiyalarini yaratish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan. Shu jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi usullarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil bilim olish jarayonini individuallashtirish, shu bilan birga masofali ta'lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o'zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari hamda masofali o'qitish texnologiyalari asosida o'quvchilarni o'qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Internet texnologiyalar asosidagi masofaviy ta'lim, bu ta'limning zamonaviy universal shakli bo'lib, u o'quvchilarning individual so'rov-lariga shaxsiy ehtiyojlariga va ularning qiziqishlariga mo'ljallangan.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitish tizimini tashkil etishni an'anaviy o'qitish tizimi bilan uyg'unlashgan holda samarali amalga oshirilishi quyidagi bir nechta omillarga bog'liq bo'ladi:

- ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari bazasining mavjudligi va yetarliligi;
- Internet tarmog'ida ishlashning uzluksizligi;
- masofadan bilim olayotgan o'quvchilarning bilim olish ishtiyoqi, qiziqishi va o'zlashtirish darajasining yuqoriligi;
- masofadan o'qitish tizimiga bilimli, malakali va tajribali mutaxassis va o'qituvchilarning jalb etilishi;
- masofadan o'qitish tizimining kerakli va sifatli o'quv materiallari, elektron darsliklar va o'quv kurslari bilan ta'minlanganligi va ularning yetarliligi;
- masofadan o'qitish tizimida barcha mashg'ulotlarni tizimli tarzda olib borilishi.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida masofadan o'qitish vositalariga an'anaviy o'qitish vositalardan tashqari quyidagilar ham kiradi:

1. elektron o'quv nashrlar;
2. kompyuter o'qitish tizimlari;
3. audio-vidio o'quv materiallari;
4. turli adabiyot va axborotlar manbalari tomonidan tavsiya etilgan o'quv-nazorat testlari;
5. kutubxona ma'lumotlar bazasi bilan aloqa;
6. virtual materiallar va laboratoriyalar;
7. o'quvchilar bilimlarini baholash mezonlari va materiallari.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitishning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan yaratilayotgan va qo'llanilayotgan pedagogik dasturiy vositalar – o'quv dastur, elektron o'quv qo'llanma, avtomatlashtirilgan o'qitish kurslari va hokozalarning maqsadi,



tarkibiy qismi, mazmuni va o'qitish sifatiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilar mustaqil bilim olishida, o'tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o'rgatuvchi, axborot – ma'lumotli, nazorat qilish dasturlari axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Keys texnologiyasida o'quvchilarga o'quv va o'quv-amaliy materiallar «Keys» yoki portfel ko'rinishida beriladi. Bu materiallar kompakt-disk yoki boshqa axborot tashish vositalarida joylashgan bo'ladi.

O'quvchilarda unda berilgan nazariy ma'lumotlarni mustaqil o'rganish bilan birga, amaliy masalalar yechimiga nisbatan o'zlarining fikr mulohozalarini bildiradilar.

Masofadan o'qitishning tarmoq texnologiyasida o'quv dargohi va o'quvchi orasida ma'lumotlar almashinuvchi telekommunikasiyadan foydalanish bilan, ya'ni lokal yoki internet tarmog'ida ishlash orqali amalga oshiriladi.

Tarmoq texnologiyasidan foydalanish orqali virtual o'qitish formasiga o'tish asoslari va texnologiyalari yaratiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Современный электронный учебно-методический комплекс — основа информационно-образовательной среды вуза. П. А. Мандрик, А. И. Жук, Ю. В. Воротницкий Информатизация образования — 2010: педагогические аспекты создания информационно-образовательной среды: материалы междунар. науч. конф., Минск, 27–30 окт. 2010 г. — Минск: БГУ, 2010

2. Листопад Н. И., Воротницкий Ю. И. Электронные средства обучения: состояние, проблемы и перспективы Высшая школа. — 2008. — № 6.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OG‘ZAKI NUTQNI O‘STIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Karimova Mashxura Bazarovna**

Toshkent shahar Yashnobod tumani 204- maktab

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Telefon: +998-93-588-98-93

**Annotatsiya:** Og‘zaki nutqda tovushchalar, so‘zlar nutq orqali talaffuz qilinadi. Shuning uchun o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishida, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo‘llarini izlab topishimiz kerak. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki nutqni o‘stirishda o‘z tajribamda qo‘llagan pedagogik texnologiyalar haqida fikr bildiraman.

**Kalit so‘zlar:** og‘zaki nutq, daktiologiya, til sezgirligi, tizimli reja

Chiroyli so‘zlashni, savodli, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan o‘quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o‘zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo‘lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo‘ladi. Nutq orqali odamzot o‘zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda-to‘la rivojlangan yoki shakllangan bo‘lavermaydi. Og‘zaki nutqqa o‘rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo‘l alifbosi) dan foydalaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o‘zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg‘ulotlarning yetakchi o‘rni nutq o‘stirish bo‘lib, u savod o‘rgatish, chiroyli yozish ko‘nikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o‘z ichiga oladi. Bu darslarda ko‘proq amaliy maqsadlarni ko‘zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, o‘quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og‘zaki nutqini muntazam o‘stirib borish bog‘lanishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi. Savod o‘rgatish darslarida amaliy mashg‘ulatlarga keng o‘rin berish va malakalarni singdirishda qiziqarli va jonli narsalardan, texnika vositalaridan, turli o‘yin va o‘yin turidagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Darslikka doir hikoyalar, ertaklar, she‘r va maqollardagi notanish so‘zlar o‘qib yoki eshittirib tushuntiriladi. Masalan, “Kim sezgir” , “Bu nima” , “Nomini ayt” o‘yinlari. Mashqning bu turlari o‘quvchilarga yangi harf o‘rgatilgandan keyin uni qay darajada o‘zlashtirilganliklarini sinash va mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘qituvchi doskaga o‘rnatilgan harflarni ma‘lum bir tartibda teradi va uni o‘qigach, oquvchilarga ham navbat bilan o‘qitadi. So‘ngra bolalarga sezdirmay ayrim harflar almashtirib qo‘yiladi. Bunda o‘quvchilarning sezgirligi, topgirligi baholanib, rag‘batlantiriladi. Ma‘lumki, nutq tafakkur bilan bog‘liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda o‘stiriladi. Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g‘oyasini anglab etishi uchun tahlil, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo‘llanadi. O‘qilgan asarni tahlil qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o‘qituvchi rahbarligida asarning tizimli rejasini tuzadilar (tugun, kulminasiya, yechim). Masalan, bolalar O‘. Usmonovning “Chumchuq bola” hikoyasida qatnashuvchi shaxslar sifatida Boboxonni, chumchuq bolani, Tal‘atni aytadilar; “Laqma it” ertagida qatnashuvchilarni: laqma it, echki, mushuk, xo‘roz, olaqashqani aytadi. Qatnashuvchi shaxslarni o‘quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin. Ammo, o‘qituvchi ularni asarda qatnashgan tartibda aytishni so‘raydi. Natijada o‘qituvchi rahbarligida hikoyaning jadvali tuziladi. O‘qituvchi bergan savoli yordamida bolalar Boboxon chumchuq bolani bug‘doyzordan tutib olgani, uni qiynagani, ko‘chada o‘rtog‘i Tal‘atni ko‘rib qolgani, Boboxonning ishidan Tal‘atning xafa bo‘lgani, chumchuq bolani qizil qalam va o‘chirg‘ichga almashib olgani va uchirib yuborgani (qutqargani), Boboxon esa uyalganidan dovdirab qolganini aytib beradilar. Hikoyaning mazmuni shunday aniqlanadi. Shunday qilib, hikoya mazmuni bilan birinchi tanishish o‘quvchilardan ongli ishlashni, ya‘ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini tahlil qilishni talab qiladi. O‘qish bilan bog‘liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi. Boshlang‘ich sinflar o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari



esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli o‘quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o‘ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, harakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o‘zaro bog‘liqlikni yoritishga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat tahlildan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o‘zaro bog‘laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba‘zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. O‘quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldigan keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinfda. O‘qish darslari. (O‘qituvchi kitobi.) Toshkent. O‘qituvchi, 2004-yil.
2. Ma‘qulova B. va boshqalar. Boshlang‘ich sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari. T., «O‘qituvchi», 1996- yil.



## INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING XALQ TA'LIM TIZIMIDAGI YANGI BOSQICH DAVRI

**Mamataliyev Ergash Elomonovich**

Surxandaryo viloyati Sho'rchi tumani 11 - umum ta'lim  
maktabi informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

**Xudoyorov Jamshid Abdimuminovich**

Surxandaryo viloyati Uzun tumani 11-umum ta'lim  
maktabi informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Informatika va axborot texnologiyalari fanining xalq ta'lim tizimidagi yangi bosqich davri hususida tahliliy mulohazalar keltirilgan bo'lib, ushbu davrda kompetensiyani joriy etilishi bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** AKT, texnologiya, kompetensiya, tizim

Bugungi kunda ko'plab davlatlar axborot-kommunikatsiy texnologiyalari (AKT)ni iqtisodiy-ijtimoiy sohalarga, xususan, ta'lim jarayoniga joriy etishdagi eng dolzarb muammoga, u ham bo'lsa fan o'qituvchilarining AKT-savodxonligi, fanlarni o'qitishda AKT vosita va metodlaridan samarali foydalanish bo'yicha tayyorgarligi muammosiga duch kelmoqdalar. Mamlakatimizda ham mazkur muammoga jiddiy e'tibor qaratildi. Chunki, hozirgi davrda, jamiyatdagi jadal rivojlanish, o'zgarishlar bilan bir qatorda, ta'lim tizimida yangilanishlar yuzaga kelmoqda.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq barcha sohalar qatori, AKT sohasining rivoji ham alohida dolzarb masala sifatida begilandi. Bu borada tadqiqotchi-olim N.Sh.Turdiyev va boshqalar muallifligidagi o'quv-uslubiy qo'llanma quyidagi: "O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi Farmoniga muvofiq qabul qilingan "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi PF-3431 son Farmonida belgilangan besh ustuvor yo'nalishning uchinchi bandida umumta'lim maktablari uchun Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish vazifasi qo'yildi. Yangi tahrirdagi DTS va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich (2004-2009 yillar) tajriba-sinovdan o'tkazish belgilandi va bu ish amalga oshirildi. Modernizatsiyalash va bosqichma-bosqich o'tkazilgan tajriba-sinovlar natijasida barcha fanlar DTS va o'quv dasturlariga tegishli o'zgartirishlar kiritib borildi" – ma'lumotlar keltirilgan.

Yangi modernizatsiya qilingan o'quv reja va dastur asosida 5-sinf informatika darsligi B.Boltayev, M.Mahkamov, A.Azamotov, S.Raxmonqulovalar tomonidan darsliklar tayyorlanib maktablarga joriy etildi.

B.Boltayev boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan 2005-2006 o'quv yilidan boshlab, tajriba sinovdan o'tgan 9-sinf informatika darsligi yangi talqinda maktablarga joriy etildi.

Bunda asosan Beysik dasturlash tili o'rniga Paskal dasturlash tili bilan almashganligi, darslik asosan kompyuter bilan bevosita amaliy mashg'ulotlar olib borishga moslashganligi va mavzular to'liqroq yoritilganligi bilan farq qiladi. 2006 yilda darsliklarning tadbiiq etishning yangi ko'rinishi ishlab chiqildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun yaratilgan «Informatika» darsligi asosida elektron darsligi yaratildi. (O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi, Guvohnoma DGU 01052, 13.02.2006)

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 2006-2007 o'quv yilida 5-sinf o'quvchilariga informatika darslarining o'qitilishini ta'minlash va tajriba sinov o'tkazish yo'lga qo'yildi. 2007-2008 o'quv yilidan boshlab, 6-sinf. 2008-2009 o'quv yilidan boshlab, 7-sinf informatika darsning o'tilishi yo'lga qo'yildi. Darsliklar va ushbu darsliklarga mos elektron darslik ketma-ket chiqarila boshlandi. Mualliflar tomonidan darsliklar yillar davomida qayta nashrda chiqarilib takomillashtirilib borildi. Takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari Hukumat komissiyasining 2009 yil 16 dekabrda 07G`1-356-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlandi. 2010 yil 15 fevralda "O'zstandart" agentligining 05-182-sonli qarori bilan Davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Zamon taraqqiy etishi, jamiyatga yangi bilimlarning kirib kelishi munosabati bilan yangi darsliklarga bo'lgan ehtiyoj sezila boshladi. O'quv prosesining jahon standartlariga moslashtirish talabi qo'yildi. Bilimlarini kompetentsiyalarga transformatsiya qilish orqali insonlar nafaqat iqtisodiy va texnologik taraqqiyotga o'z hissalarini qo'shadilar, balki shaxsiy muvaffaqiyat va farovonlikka erishadilar. Bunday kompetentsiyalarni belgilash orqali yoshlarimizni kelajak



xayotga qay darajada tayyorlik darajasini baholash mumkin. Yoshlarimiz kelajakda muvaffaqiyatli xayot kechirishlari, jamiyatda o'z o'rnini topishlari hamda ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi uchun qanday kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerak, degan savol butun dunyo ta'lim hamjamiyati oldida turgan dolzarb mavzuga aylangan. Shu sabab informatika fanidan Davlat ta'lim standartlarni yangilash, o'quv dasturlarni takomillashtirish – informatika faniga oid kompetentlikni (AKTkompetentlikni) kiritishni taqozo etdi.

Ushbu vaziyatlardan kelib chiqib, Oliy va o'rta maxsus talim, Xalq ta'limi vazirliklari hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining dagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalarini tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida»gi qo'shma buyrug'iga asosan respublikamiz ko'plab ta'lim muassasalarida 2014-2015 o'quv yilidan tajriba-sinov ishlari boshlab yuborildi. Tajriba-sinov ishlari 2016-2017 o'quv yilida yakunlanib, to'plangan ma'lumotlar, takliflar va xulosalar asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187 - sonli qarori qabul qilindi hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Ushbu qarorga muvofiq «Informatika hisoblash texnika asoslari» fani «Informatika va axborot texnologiyalari» nomiga o'zgartirildi. Ushbu fan o'rta umumta'lim maktablarining 5-sinfidan boshlanib, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida umumta'lim o'quv fani sifatida uzviy davomiyligi belgilab qo'yildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari informatika ta'limida o'rganilgan o'quv materiallarining akademik litsey va kasb-hunar kollejlari informatika ta'limida takrorlanmasligi, o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlari, umumiy o'rta ta'lim tayyorgarligiga mos kelishi hamda informatika tushunchalarni asta-sekin oddiydan murakkabga shakllantirish e'tiborga olindi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-7 sinflarning har birida Informatika va axborot texnologiyalari -17 soatdan, jami - 51 soat, 8-sinfda -34 soat, 9-sinfda - 68 soat taqvim-mavzuyi reja asosida o'qitish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 sentyabrdagi PQ-3274 sonli Qarori 1-bandida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikasiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirish o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etish taklifi berildi. Qarorning 4-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan belgilangan kvota osasida 5-sinfdan tanlov asosida qabul qilish vazifasi yuklatildi hamda 5-bandida 2017-2018 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda kutubxona fondini zarur darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash choralari ko'rish topshirig'i berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 16 iyun oyida Uchtepa tumanidagi 78-sonli maktabga tashrifi chog'ida 10-11 sinflar xususida to'xtaldi. Ushbu maktabda tajriba sifatida 11 yillik ta'limni qayta tiklash taklifi berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 iyuldagi 01-07G'1-1554-son bayoniga asosan Ishchi guruh tomonidan joriy yilning 10-20 iyul kunlari bevosita joylarga chiqqan holda umumiy o'rta ta'lim muassasalari holati o'rganildi:

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan 9680 ta maktablarning 9-sinflarini 467 020 nafar o'quvchi tugatdi.

9-sinf bitiruvchilari va ularning ota-onalari bilan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, ulardan 352 ming 523 nafari (75,5%) 10-sinfda, 11 ming 600 nafari (2,5%) litseylarda, 102 ming 43 nafari (21,8%) kasb-hunar kollejlariida o'qish istagini bildirdi. Birinchi vazifa sifatida e'tibor o'quv dasturi va kitoblarga qaratildi va shu xususida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 25 iyuldagi 803-F sonli Farmoyishi qabul qilindi. Mazkur Farmoyish bilan 10-11-sinflarning o'quv rejasi hamda darsliklarni nashrga tayyorlash va chop etishni amalga oshiradigan nashriyotlar va bosmaxonalar ro'yxati tasdiqlandi. 11 yillik majburiy umumiy ta'limga o'tishda o'zimizdagi oldingi yillardagi tajribalar, 11 yillik ta'limda faoliyat ko'rsatayotgan Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Rossiya va Boltiqbo'yi mamlakatlari tajribalari o'rganilib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarorining 3-ilovasiga qo'shimcha tarzda Ijodiy guruhlar tomonidan O'rta ta'limning (10-11-sinflar uchun) umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari 12 ta fandan ishlab chiqildi. O'quv reja asosida o'rta



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni ta'lim tizimini, shu jumladan ta'lim jarayonini yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalari asosida shakllantirish, zamonaviy elektron axborot resurslari va portallari yaratishda hamda ta'lim tizimini yanada axborotlashtirishda muhim vazifalardan biri ekanligi hamda bugungi kunda respublikamizda ta'lim muassasalari xodimlarini malakasini oshirish tizimini kompyuter, mul'timedial elektron qo'llanmalar, internet, elektron ma'lumotlar bazasi, masofadan o'qitish kabi yangi axborot texnologiyalari asosida tashkil etishni yanada yuqori darajaga olib chiqish hamda dars jarayonida o'quv, o'qitish, modellashtirish, amaliy, axborotli va boshqa dasturlardan keng foydalanishga oid bir qator ishlar amalga oshirish belgilangan.

Respublikamiz ta'lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga qo'llashdan iborat. O'zbekistonda ta'lim tizimining axborotlashtirilishi xalqaro hamjamiyatda ham tan olindi. Masofaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Iqtisodiyot va jamiyatda islohotlarning o'tkazilishi



natijasida o'quv jarayonining zaxira hajmini keskin oshirish bo'yicha yangi talablar qo'yildi. Hozirgi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga, iqtisodiyot va umuman jamiyatning rivojlanish poydevoriga aylanmoqda.

O'zbekistonda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyatli tizimli rivojlanishi yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi.

Hozirgi kunda barcha sohalarda o'zgarishlar va yangilanishlar bo'layotganligi kuzatilmoqda. Jamiyatdagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda, dasturlash sohasida ham jadal rivojlantirishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda.

Insoniyat taraqqiyot yutuqlaridan, yangi texnologiyalar va tayyor mahsulotlardan bu yangiliklar qanday dunyoga kelganini o'ylab o'tirmasdan foydalanishga ko'nikkan. Bu mahsulotlardan biz foydalanishimiz uchun dasturchilar qanchalik uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tganini doim ham o'ylayvermaymiz. Axir mazkur yo'nalishlardagi mashaqqatli izlanishlarning poydevori ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar aynan uning asosida quriladi. Shuning uchun ham axborotlashtirish darajasi rivojlangan davlatlar, yuqori texnologiyalar sohasidagi zamonaviy ishlab chiqaruvchi gigantlar ilmiy va amaliy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratadi. Bisotida kuchli ilmiy jamoa va laboratoriyaga egalari bu tadqiqotlarga har yili milliardlab dollar mablag' sarflaydi va yuzlab, minglab patentlarni qo'lga kiritadi.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish va milliy bozorini rivojlantirish bo'yicha qator choralar ko'rilmogda. Jumladan, mazkur sohaning normativ-huquqiy bazasi, moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy, kadrlar va boshqa jihatlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy-texnik salohiyatni shakllantirish muhim faktorlardan biri hisoblanadi.

Xorijning rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, istalgan mamlakatning asosiy boyligi - ilmiy-texnik va intellektual salohiyatdan iborat. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotni taraqqiy toptirish yo'lida intellektual va ilmiy-texnik salohiyatning birlashtirilishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Umumta'lim maktablari Informatika va axborot texnologiyalari mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan yangilangan darslik va o'quv rejasi asosida shakllantirilgan bo'lib, o'quvchilarining informatika va axborot texnologiyalari fanidan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning algoritmlar va dasturlash sohasi bo'yicha kompetensiyalarini muntazam yuksaltirishni nazarda tutadi. Jumladan, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarida Scratch dasturiy ta'minotni o'rganish 5-sinfdan yo'lga qo'yildi. Bu dastur juda ko'p platformalarga mahsulotdir, ya'ni Windows, Linux va Mac operatsion tizimlari bilan kompyuterga o'rnatilishi mumkin. Dastur bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan, ammo kattalar uni ishlatishi mumkin. Muhitda siz o'ynashingiz, taqdimot, multfilm, interaktiv darslik va asosiysi dastur yaratishingiz mumkin. Scratch interfeysi juda oddiy, ilovada ishlash asoslarini o'rganish uzoq davom etmaydi. Yaqinda 2.0 versiyasi mashhurlikka erishdi, ammo endi u Scratch 2.0 ning yanada qulay versiyasi bilan almashtirildi, ular 3.0 versiyasining takomillashtirilganligi, juda o'zgartirilgan interfeys va yangi xususiyatlar bilan chiqarishni va'da qilmoqdalar.

Dasturiy ta'minot sohasida mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilapti. Misol uchun, bir necha universitetlarda ushbu yo'nalishda bakalavr va magistr larni tayyorlashga qaratilgan kafedralar faoliyat olib bormogda. Biroq, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'nalishida ilmiy-amaliy tadqiqotlar hajmi va darajasi resurslardan yetarli darajada foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Shu sababli dasturiy mahsulotlar bozorini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, ilmiy-texnik va texnologik-ishlab chiqarish sektorlari rivojlantirilishiga qaratilgan qulay sharoitlar va samarali mexanizmni yaratish, shuningdek, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va joriy qilishni rivojlantirish yo'nalishiga moliyaviy institutlarni jalb qilish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari, ilmiy-texnik loyihalar, dasturiy mahsulotlar yo'nalishidagi innovatsion takliflardan samarali foydalanish va amaliyotga joriy qilishni ta'minlash, bevosita dasturiy ta'minot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi maxsus tadqiqot, ilmiy-texnik markazlarni shakllantirish lozim.



### Foydalangan adabiyotlar.

1. Патаракин Е.Д. Руководство для пользователя среды Scratch / Е.Д. Патаракин [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://anngeorg.ru/files/Rukovodstvo.pdf>
2. Патаракин Е.Д. Учимся готовить в среде Скретч: Учебно-методическое пособие / Е.Д. Патаракин. – М: Интуит.ру, 2008. – 61 с.
3. Рындак В.Г. Проектная деятельность школьника в среде программирования Scratch: Учебно-методическое пособие / В.Г. Рындак, В.О. Дженжер, Л.В. Денисова. – Оренбург: Оренб. гос. ин-т менеджмента, 2009. – 116 с.
4. Скретч // Letopisi.Ru: Общенациональный образовательный проект с международным участием [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://letopisi.ru/index.php/Скретч>
5. Виленкин Н.Я. Математика: Учебник для 5 класса / Н.Я. Виленкин, В.И. Жохов, А.С. Чесноков, С.И. Шварцбурд. – М.: Мнемозина, 2013. – 280 с. 2. Еремин Е.А. Среда Scratch – первое знакомство // Информатика. – 2008 – №18 (571) – С. 17–24. (Прилож. к газете «Первое сентября»).
6. Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс» 8 <https://interactive-plus.ru> Со-держимое доступно по лицензии Creative Commons Attribution 4.0 license (CC-BY 4.0) 3. Еремин Е.А. Среда Scratch – первое знакомство // Информатика. – 2008. – №20 (573) – С. 16–28. (Прилож. к газете «Первое сентября»).
7. Мастерская «Мозаика Скретч» // ПскоВики – сайт педагогического сообщества Псковской области [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [http://wiki.pskovedu.ru/index.php/Мастерская\\_Мозаика\\_Scratch](http://wiki.pskovedu.ru/index.php/Мастерская_Мозаика_Scratch)



## ПЕДАГОГЛИК КАСБИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ

**Жылқыбаева Жайна Хожалиевна**  
Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳар  
25-сонли мактабнинг  
Тасвирий санъат фани ўқитувчиси

**Аннотация:** Мақолада, ўқитувчидан ўз касбининг моҳир устаси бўлишни, ўқувчи - ёшларга тарбиявий таъсир кўрсатиб, уларнинг қизиқиши, қобилияти, истеъдоди, эътиқоди ва амалий кўникмаларини ҳар томонлама ривожлантиришнинг оптимал йўллари излаб топадиган касб эгаси бўлишни талаб этиши ҳақида айtilган.

**Калит сўзлар:** Педагог, таълим-тарбия, ўқувчи, ўқитувчи, касбий маҳорат, замонавий ёндашув.

Мамалакатимизда ижтимоий-иқтисодий ривожланиши билан бир қаторда бугунги кунда таълим тизимининг ривожланиб бориши замон талабига мос таълим-тарбияга қаратилгандир. Педагогларнинг ўз устида ишлаши, тинмай изланиш олиб бориши ҳамда, ўқув жараёнини замон талаблари даражасида, илмий асосда ташкил этиш учун зарурий шароитларни яратиб бериш билан бир қаторда, ижтимоий тажрибаларга асосан иш олиб бориш лозимдир.

Педагогиканинг бош масаласи тарбиядир. Тарбия - шахсни муайян

йўналишда шакллантириш, камол топтириш мақсадида турли одамларнинг бир-бирига таъсир кўрсатадиган ижтимоий муносабатдир. Педагоглик касби муҳим ижтимоий аҳамият касб этади. Зеро, педагог ёш қалблар камолотининг меъморидир. Бугун у ёшларни ғоявий – сиёсий жиҳатдан чиниқтириб, табиат, жамият, тафаккур тараққиёти, қонуниятларини ўргатар экан, аввало, у ёш авлодни келажак меҳнат фаолиятига тайёрлаши, касб – ҳунар эгаллашларига кўмаклашиши ва жамият учун муҳим бўлган ижтимоий – иқтисодий вазифани ҳал этишга чоғламоғи даркор. Ана шу маъсулият ўқитувчидан ўз касбининг моҳир устаси бўлишни, ўқувчи - ёшларга тарбиявий таъсир кўрсатиб, уларнинг қизиқиши, қобилияти, истеъдоди, эътиқоди ва амалий кўникмаларини ҳар томонлама ривожлантиришнинг оптимал йўллари излаб топадиган касб эгаси бўлишни талаб этади. Бунинг учун педагогик маҳорат фани ўқитувчидан доимо касбий маҳорати устида изланиш учун, унга турли шарт – шароитлар яратиши, керакли моддий ва илмий –методик ёрдам кўрсатиши ҳамда ўқитувчининг ижодий ташаббускорлигини оширишига кўмаклашади.

Таълим-тарбия жараёнларини илмий асосларда ташкил этиш, ўқувчилар фаоллигини таъминлаш ва фаолиятини мувофиқлаштириш асосида педагогик жараёнларнинг сифат ва самарадорлигини таъминлашда замонавий ёндашувларга асосланадиган, юксак ахлоқий сифатларга эга бўлган, ўзини-ўзи ва ўз фаолиятини ўзи таҳлил қиладиган ва объектив баҳолай оладиган, бой фалсафий ва маънавий дунёқарашга, психологик-педагогик ва ташкилий-технологик салоҳиятга эга бўлган.

Таълим муассасалари ўқитувчиларининг аксарияти педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда ўқитувчининг асосий вазифалари таълим-тарбия жараёнини илмий асосда ташкил этиш ва назорат қилиш, таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларга ўрганилиши режалаштирилган мавзу бўйича зарурий ахборотларни етказиб беришдан иборат деб ҳисоблайдилар. Бизнинг фикримизча, педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш жараёнида педагоглар томонидан ўзига хос аҳамият касб этувчи қуйидаги вазифалар бажарилиши зарур:

- ўқув дастурида ўрганилиши режалаштирилган мавзуга мос равишда таълим жараёнининг таълим-тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадларини белгилаш;

- педагогик жараёнда ўқувчиларнинг субъективлигини таъминлаш ва фаоллигини оширувчи технологияларни татбиқ этиш жараёнларини лойиҳалаштириш;

- педагогик жараёнда фойдаланиладиган дидактик воситаларни танлаш ва олдиндан тайёрлаш;

- педагогик жараёнларнинг узлуксизлиги ва узвийлигини таъминловчи чора-тадбирларни белгилаш;

- педагогик жараёнларда илғор педагогик тажрибалар ва замонавий ахборот



технологияларидан фойдаланилиш;

- ДТС ва давлат талабларини амалиётда қўллаш ва унинг мониторингини олиб бориш;
- ДТС ва ДТ асосида мустақил таълим жараёнларини ташкил этиш;
- ўқувчиларнинг мустақил таълим жараёни натижаларига қизиқишини шакллантириш ва рағбатлантириш асосида инновацион фаолиятни ташкил этиш;

-ўқувчиларнинг ўқув, меҳнат ва ўйин фаолиятларини назорат қилиш ва мувофиқлаштириш.

Демак, таълим муассасалари педагогларининг ўз функционал вазифаларини амалга ошириш жараёни педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришга йўналтирилган вазифаларни амалга ошириш жараёни бўлиб, педагогик жараёнларда кўзланган натижаларга эришиш учун белгиланган мақсадлар йўналишидаги субъект (ўқитувчи-ўқувчи)лар фаолиятини режалаштириш, ташкил этиш, назорат қилиш, таҳлил қилиш ва баҳолаш, педагогик жараёнларда бевосита ва билвосита таъсир кўрсатиш орқали субъектларнинг фаолиятини мувофиқлаштиришни назарда тутди.

### **Адабиётлар**

1. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши. Насаф, 2000.
2. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси. – Тошкент: “ Иқтисод -молия”, 2007.
3. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет. қўлл.У.И.Иноятов, Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2012.
4. Педагогика фанидан изоҳли луғат / Тузувчилар Ж.Ю.Ҳасанбоев ва бошқ. – Тошкент: “Фан ва технология” нашриёти, 2009.



## МАЪРИФАТ МАШЪАЛАСИ

**Мафтуна Рашидова**

Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар  
Вазирлиги Фарғона академик лицейи  
Психология фани ўқитувчиси

**Аннотация:** Китоб мутолааси ва ёшлар ҳаётида китобнинг ўрни катта аҳамиятга эга. Ва бу масала давлат сиёсати даражасига олиб чиқилди. Президентимизнинг 2017 йил 12 январдаги “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги Фармойиши бу фикримизнинг яққол намунаси.

**Калит сўз:** китоб, шиддат, ёш авлод, маърифат машъаласи

Бугунги шиддат билан ривожланиб бораётган замонамизда техниканинг ўрни беқиёсдир. Телефон, компьютер, телевизор, планшет - буларнинг барчаси кунлик ҳаётимизга янгиликларни, маълумотларни бевосита етказиб бераётгани ҳар биримиз учун одатий ҳолга айланиб улгурди.

Ўсиб келаётган ёш авлодни кузатар эканман, чақалоқлик давридан то ўсмирлик ёшигача эски авлод вакиллари кескин фарқини сезаман. Ҳатто баъзида катталарнинг “ биз бу боланинг ёшида бундай эмас эдик, ундай эдик, бундай эдик ”- деган шахсий хулосаларини ҳам эшитиб қоламан. Бу хулосалар айни ҳақиқат, лекин хулқ – атвордаги фарқда замон ёки сиёсий даврнинг унчалик аҳамияти йўқ. Бундай ўзгаришларнинг асл сабаби: биологик, экологик, ижтимоий сабаблардир. Мен ижтимоий сабабларга эътибор қаратишни, кузатув ва хулосаларимни баён қилишни хоҳладим.

Мақоламнинг бошида техника, унинг ривожини, ҳаётимиздаги ўрни ҳақида бежизга фикр юритмадим. Бугун, телефон, компьютер, телевизор, планшетлар сабаб чин маънода маърифатга етакловчи, маънавий озуқа берувчи, фикрлаш қобилиятини, нутқ маданиятини шакллантирувчи, инсонийлик фазилатларини образлар орқали тарғиб қилувчи – китобимизни бир четга суриб қўйдик. Мутахассислик нуқтаи назари билан айтадиган бўлсам, китоб руҳий тетиклик беради, ҳис – ҳаяжонни босади (ваҳоланки, ҳозирги авлоддаги энг катта муаммолардан бири бу- ўзидаги ҳаяжонни боса олмаслик), коммуникативликни ривожлантиради, диққатни жамлайди, дипломатик қобилиятларни тарбиялайди, ўсмирлик ва балоғат давридаги нозик ҳисларни англашга, самимий тушунишга, авайлашга ўргатади.

Мактабгача ёшдаги болани тарбия қилаётган (баъзан “боқаётган” сўзи билан ифодалашни маъқул кўраман) ҳар бир онанинг бугунги шикоятини боласининг қайсарлиги, кўп йиғлаши, уйқусизлиги. Энг ёмони эса бу ўзгаришларни бартараф этиш учун онанинг бола қўлига телефон, планшет тутқазиб қўйиши, болани бадтар зўриқтирадиган мультфильмларни қўйиб бериш билан кифояланиши. Телефондаги асаб толаларини қўзғатадиган ўйинлар, кўрқинчли қаҳрамонлар муаммонинг ечими эмас. Бу муаммоларнинг ечими ҳам яна ўша кадрдон, севимли, беминнат дўстимиз – китобда. Болакайга ёшига мос китоб сотиб олиб бериш ( биргаликда танлаб, чунки бу ёшда бола руҳияти ва кайфиятига мос нарсаларни ранги, шакли, ҳажми кабиларга қараб танлай олади), озгина вақт ажратиб ўқиб бериш, рангларини, қаҳрамонлар суратларини таҳлил қилиш боланинг бугуни ва келажак учун муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Барча соҳалар қатори, ички ишлар органлари фаолиятида ҳам тизимли ислоҳатлар амалга оширилаётган бир даврда ҳар бир ходимга ёрқин маънавий қиёфа, нутқ маданияти, қўшимча тилларни ўрганиш каби муҳим талаблар қўйилмоқда.

Юқоридаги талабларга мос ходимни тарбиялаш эса тизимнинг илк бўғини: Ички Ишлар Вазирлиги академик лицейлари зиммасидаги улкан маъсулиятдир. Бунинг учун лицейларнинг бадиий адабиёт фонди захирасини янги, ватанпарварлик, инсонийлик фазилатларини тарғиб қилувчи китоблар билан янада бойитиш, лицейнинг ҳар бир ўқувчисида бадиий адабиётларни ўқишга бўлган қизиқишларини ошириш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Тизимдаги лицейларда таълим олаётган ўқувчи бўлажак ички ишлар ходими. Ички Ишлар ходими эса фуқароларни кўрқитувчи, нафрат уйғотувчи шахс бўлиб эмас, юксак инсоний фазилатларга эга, маънавий етук, коммуникативлиги юқори, руҳан кучли, ўз ҳис – ҳаяжонини ва туйғуларини жиловлай оладиган, тарбияланган бўлиши бугунги кун ва замон



талабидир.

Санаб ўтилган ҳар бир фикрларимизнинг инсон қалбида куртак отиб, ривожланиб, жамиятга фойда беришига ҳам асосий восита бу- китоб!

Китоб – маънавият машъаласи! У ҳар бир инсоннинг, ҳар бир соҳа ходимининг, барча – барчанинг энг сеvimли, яқин дўсти бўлиши керак.

Фарзандларимизга китоб берган маънавий озукани, тарбияни, таълимни ҳеч қайси техника, ҳеч қандай интернет тезлиги бера олмайди.

Педагог ва она сифатида китобнинг инсон ҳаётида болалик, ўсмирлик даврларига ижобий таъсирлари, шахс психологиясида тутган ўрни ҳақида кўплаб мисолларни келтиришим мумкин. Фарзандларимизга ўзларининг сеvimли китоблари, ҳавас қиладиган ижобий қаҳрамонлари, давраларда тўлқинланиб сўзлаб берадиган бадиий асарлари, ўхшашни истайдиган ватанпарвар тимсоллари (Алпомиш, Широқ каби), нозик туйғуларини авайлашга, қадрлашга ўргатадиган қиёфаларининг (Отабек, Кумуш мисоли) бўлишига ёрдам берайлик! Кўлларига телефон эмас, китоб тутказайлик! Болаларимиз китоб ўқиб, ички, ташқи агрессияларининг пасайишига, ўсмирлик даври стрессларининг осон кечишига эришсин, жиловланмаган ҳаяжонларини кучли маънавият билан енгиб ўтишга ечим топа олсин. Бу, бизнинг ва жамиятнинг кўплаб муаммоларига энг тўғри ечим бўла олади.

Ёшларимиз – Ватанимизнинг келажаги! Келажагимизнинг қўлларига ижтимоий ҳавфли қуроллар (телефон, планшет... каби)ни эмас, маърифат машъаласи – Китобларни берайлик!



## КЕЙС ТЕХНОЛОГИЯ - ВАЖНЫЙ КЛЮЧ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ

**Тухтаев Кувончбек**

Учителя, школа № 12, г. Навои, Узбекистан

**Холиков Охунжон**

Учителя, школа № 12, г. Навои, Узбекистан

**Гуломов Улугбек**

Учителя, школа № 12, г. Навои, Узбекистан

**Камолова Дильшода**

Учителя, школа № 12, г. Навои, Узбекистан

**Келдиерова Мохинур**

Учителя, школа № 12, г. Навои, Узбекистан

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено роль кейс-технологии в современной системе образования и ее междисциплинарные достижения.

**Ключевые слова:** Case study, дискуссия, анализ, исследования, наука, образования.

Метод case-study или метод конкретных ситуаций (от английского case – случай, ситуация) – метод активного проблемно-ситуационного анализа, основанный на обучении путем решения конкретных задач – ситуаций (решение кейсов). Метод конкретных ситуаций (метод case-study) относится к неигровым имитационным активным методам обучения. Непосредственная цель метода case-study – совместными усилиями группы студентов проанализировать ситуацию – case, возникающую при конкретном положении дел, и выработать практическое решение; окончание процесса – оценка предложенных алгоритмов и выбор лучшего в контексте поставленной проблемы.

Сегодня метод case-study завоевал ведущие позиции в обучении, активно используется в зарубежной практике бизнес – образования и считается одним из самых эффективных способов обучения студентов навыкам решения типичных проблем.

Для того чтобы учебный процесс на основе case – технологий был эффективным, необходимы два условия: хороший кейс и определенная методика его использования в учебном процессе.

### **Материалы и методы исследования.**

Case-studies – учебные конкретные ситуации специально разрабатываемые на основе фактического материала с целью последующего разбора на учебных занятиях. В ходе разбора ситуаций обучающиеся учатся действовать в «команде», проводить анализ и принимать управленческие решения.

У метода case-study есть свои признаки и технологические особенности, позволяющие отличить его от других методов обучения



Рис.1. Технологические особенности кейс-метода




Рис.2. Субъекты в процессе обучения по методу кейсов

- тренер (преподаватель) – им может быть внутриорганизационный специалист по обучению персонала или внешний контрагент;
- обучающиеся (слушатели) – это сотрудники организации разных категорий (специалисты, руководители), проходящие обучение.

Программно-целевой анализ представляет собой дальнейшее развитие рекомендательного анализа в аспекте выработки программы достижения определенной цели. Он сосредотачивается на разработке подробной модели достижения будущего.

#### **Результаты и их обсуждение.**

Анализ кейсов может быть как специализированным, так и всесторонним. Специализированный анализ должен быть сосредоточен на конкретном вопросе или проблеме. Всесторонний (подробный) анализ подразумевает глубокое погружение в ключевые вопросы кейса.

Использование метода case-study как технологии профессионально-ориентированного обучения представляет собой сложный процесс, плохо поддающийся алгоритмизации. Формально можно выделить следующие этапы:

- ознакомление студентов с текстом кейса;
- анализ кейса;
- организация обсуждения кейса, дискуссии, презентации;
- оценивание участников дискуссии;
- подведение итогов дискуссии.

Обсуждение небольших кейсов может вкрапываться в учебный процесс и студенты могут знакомиться с ними непосредственно на занятиях. Принципиально важным в этом случае является то, чтобы часть теоретического курса, на которой базируется кейс, была бы прочитана и проработана студентами.

Организация обсуждения кейса предполагает формулирование перед студентами вопросов, включение их в дискуссию. Вопросы обычно подготавливаются заранее и предлагают студентам вместе с текстом кейса.

Дискуссия занимает центральное место в методе case-study. её целесообразно использовать в том случае, когда студенты обладают значительной степенью зрелости и самостоятельности мышления, умеют аргументировать, доказывать и обосновывать свою точку зрения. Важнейшей характеристикой дискуссии является уровень её компетентности, который складывается из компетентности её участников.

В методе case-study мозговая атака применяется при возникновении у группы реальных затруднений в осмыслении ситуации, представляется средством повышения активности студентов.

#### **Литература:**

1. Чуланова О.Л., Мухаммедова М.М. Кейс-метод как эффективный инструмент в системе обучения управленческого персонала организации. Интернет-журнал «Мир науке», № 1, 2015. 1-13 с.



## ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Abdulloyeva Gulmehra Rasul qizi**

Navoiy viloyati Navoiy shahar

11-AFCHO’IM informatika va AT fani o’qituvchisi

Tel: +998906467299 email: gulmehraabdullayeva@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada multimedia vositalari va darslarda multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** multimedia, kompyuter, o’qitish, ta’lim, informatika, stend.

O’qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o’qitish sifati va samarasini oshirishning eng qulay usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida olib borilayotgan audio-video muloqot o’quvchining darsga bo’lgan qiziqishini va bilim olishga bo’lgan qiziqishini oshiradi.

Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida o’quv materiallarini tinglovchiga to’liq yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko’rinishidir. Multimedia hozir juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo’lib, u quyidagi an’anaviy axborot turlari: matn, jadval, turli xil bezaklar hamda original axborot turlari: nutq, musiqa, telekadr, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animatsiya ko’rinishdagi axborotlarni o’z ichiga oladi.

Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protessorning harakatchanligini, ma’lumotlarni uzatish shinasining o’tkazish qobiliyatini, tezkor va video-xotira hajmini, katta sig’imli tashqi xotirani, kompyuter kirish-chiqish kanallari bo’yicha almashuv tezligini taxminan ikki baravar oshirish talab etiladi. Bunda “Inson – kompyuter – inson” interfaol muloqotining yangi darajasining ta’minlanishi nazarda tutiladi. Foydalanuvchi texnik muloqot jarayonida ancha keng va har tomonlama mukammal axborotlarni olishi osonlashadi va tezlashadi.

Ta’lim jarayonida virtual stendlardan foydalanish ta’lim sifati va samarasini oshirib, sarf xarajatlarni kamaytiribgina qolmay, balki ekologik toza, xavfsiz, muhit yaratilishi omili ham hisoblanadi. Virtual stendlar joriy etilishi bilan ta’lim mazmuniga boshqacha yondashuv talab etiladi. Multimedia stendlari vositasida o’quvchilar har qanday axborotni nafaqat ko’rib, balki eshitib ham xotiralarida saqlab qolishlari osonlashadi.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy multimedia texnologiyalarining joriy etilishi an’anaviy ta’limga nisbatan quyidagi samaralarga erishish imkonini beradi:

- jadval va rasmlarni rangli, ovozli, animatsiyalar, gipermatnlar bilan boyitish;
- interaktiv veb-elementlar, testlardan foydalanish;
- darsning nazariy materialini boyitib borish;
- axborotlarni muntazam ravishda yangilab turish;
- ta’lim jarayonida o’quvchi-talabalar bilan ko’proq individual ishlash, ularning darsga qiziqishlarini oshirib, egallagan bilimlarini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- ta’lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, voqelikni kompleks o’rganish;
- ta’lim jarayonining moslashuvchanligi, shakllari va usullarini, texnologik bazasini zamonaviy AKT vositalarini joriy etish orqali takomillashtirib borishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda multimedia texnologiyalari — ta’lim jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo’nalishlaridan biridir. Ta’lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini joriy etish talabalar va o’quvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim shartidir. Shu sababli ham bugungi kun o’qituvchisi tinimsiz o’z ustida ishlashi, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg’or pedagogik va multimedia texnologiyalarini samarali qo’llay oladigan shaxs sifatida o’z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlar egasi bo’lishi davr talabidir. Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi dasturiy va metodik ta’minotni takomillashtirish, moddiy baza, shuningdek, o’qituvchi mutaxassislar malakasini oshirishni talab etadi. Multimedia vositalari pedagog-kadrlarining malakasini va mahoratini yanada oshirishlarida ham muhim ahamiyatga molikdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Aripov va boshqalar. Axborot texnologiyalari.
2. Internet saytlari.



## BOLA TARBIYASIDA MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O'RNI

**Masharipova Oliyajon Ro'zmetovna**

Urganch shahridagi 18-son umumiy o'rta ta'lim maktabining  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bo'lgan bola tarbiyasi haqidagi fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** oila, mahalla, maktab, o'quv dasturi, darslik, o'quv topshiriqlari, ko'rgazmalar.

Bola tarbiyasida albatta, maktab, oila va mahallaning roli juda muhimdir. Agar ular birgalikda, ham jihatlikda ish olib borishsa natija yuqori bo'ladi. Oila jamiyatning bosh bo'g'ini ekanini hammamiz yaxshi bilamiz. Mana shu go'shada farzand tarbiyasi ildiz otadi, rivojlanadi, sayqallanadi va go'dakning qon – qoniga singadi. Eng yaxshi ezgu amallar ularning qalbiga kattalar tomonidan muhrlanadi. Biz buni maktabda yanada yuksaltirishimiz haqida fikr yuritiladi. Qadimdan azaliy ota-bobolarimiz farzandlar tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qarashgan. Ular oila atalmish muqaddas, qutlug' dargohda unib-o'sayotgan murg'ak qalblarni ming – ming yillar davomida asrab- avaylab kelinayotgan ezgulik, mehr–muhabbat, insoniylik, halollik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratishgan. Mustaqilligimiz sharofati bilan oila va mahallaga keng imkoniyatlar berildi. Bugungi kunga kelib mahallaning nufuzi yanada oshdi.

Oila jamiyatning bosh bo'g'ini ekanini hammamiz yaxshi bilamiz.

Onalar ham o'z issiq mehrlari bilan farzandlariga to'g'ri tabiya berishlari lozim. Oilaning ulug'lari bo'lgan nuroniy bobo, buvilarning odob – ahloq bobida o'z nabiralari, zurriyodlariga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar uyg'unligidagi tarbiyasi ularning yetuk shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ularning orasida yosh avlodni komillikka yetaklovchi kattaga hurmat, kichikka izzat, Vatanga muhabbat, o'zaro bag'rikenglik, saxovat peshalik va diyonat kabi go'zal insoniy xislatlarga katta ahamiyat qaratiladi.

Ota-ona o'z farzandini maktabda va maktabdan tashqari vaqtda nima bilan mashg'ul ekanligini doim nazorat qilib borishi lozim. Hurmatli Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbuslari bilan "Besh tashabbus" loyihasi keng yo'lga qo'yilgan. Bunda maktablarda va mahalla tomonidan ham bu muhim tashabbusni amalga oshirish uchun sharoitlar yetarlicha yaratilgan. O'quvchilar 5 tashabbus-5 imkoniyatdan to'g'ri foydalanishsa albatta o'z maqsadlariga erishadilar.

Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish, uni behuda sovrmaslik, vaqt oltindan qimmat ekanligini bolalar ongiga singdirishimiz lozim. Oilada farzandning sportga, turli-tuman to'garaklarga jalb qilishning ham foydasi beqiyosdir. Foydali mehnat, sport va kasbga yo'naltirilgan turli to'garaklar ularni yalqovlikdan, bekorchilikdan asraydi. Har xil salbiy oqibatlardan yiroq tutadi. Farzandlarni yoshligidan biror kasbga yo'naltirish ota-onaning zimmasidagi vazifalardan biridir. Ularni o'zlar yoqtirgan, sevgan kasb-hunar egasi bo'lishiga albatta, ota-ona va ustozlar to'g'ri yo'l- yo'riqlar berishlari, to'g'ri yo'naltirishlari kerak.

Oila-mahalla-maktab hamjihatligi doim amalda bo'lishi lozim. Bu uchlikning bir-biri bilan uzviy o'zaro bog'langanligi bugungi kunda erishayotgan yutuqlarimizning omili desak adashmaymiz. Buning yaqqol misoli bizning yoshlarimiz jahonarenalariga chiqib oltin, kumush vabronza medallari sohibi bo'lib, O'zbekiston Bayrog'ini yuksaklarga ko'tarib, yurtimizga shon-sharaflar olib kelayotganlaridadir. Qolaversa O'zbekiston yoshlari turli sohalardaturli xil tanlovlarda ham birinchilikni qo'ldan bermay e'tiroflarga sazovor bo'lmoqdalar. Shularni e'tirof eta turib, oilada, mahallada va maktabda barkamol fazilatlar egasi bo'lib tarbiyalangan, munosib kasblarga yo'naltirgan farzandlar har doim yangiliklarga intilib, yuksak yutuqlarga erishishlari tabiiy. Bunday barkamol avlodni kelajagimizning haqiqiy egalari deya ayta olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Xalq ta'limi" jurnali . 2019-y.
2. "Sinf rahbari" ilmiy-metodik jurnali 6/2018. 9-10 b
3. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2018 iyun.



## МА'LUMOTLARNI IZLASH TIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHI

**Murodqosimova Shodiya Xolmamat qizi,**  
Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi  
Tel.: +998(99)7439901  
murodqosimovashodiya@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ma'lumotlarni izlash va qayta ishlashga oid umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlar, ularning rivojlanish bosqichlari va olimlarning bu boradagi fikrlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual izlash, hujjat, so'rovlar, axborotni izlash, ma'lumotlarni izlash tizimi, ma'lumotlar ombori.

Axborot resurslarida sifatli xizmatlarni tashkil qilish uchun ehtiyoj bo'lgan ma'lumotlarni izlab topish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Dunyoning rivojlangan davlatlarida etarlicha gibrit axborot resurslari mavjudki, bu resurslar vaqtinchalik mezon asosida axborotga bo'lgan ehtiyojni qoniqtirib kelmoqda. Ammo XXI asrning birinchi 10 yilligida axborotlarning eksponensial o'sishi axborotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun ma'lumotlarni izlash va qayta ishlash tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirish, intellektualashtirish maummolarini keltirib chiqardi. Qolaversa, ommaviy ma'lumotlarni izlash va qayta ishlash tizimlarining imkoniyatlari chegaralanganligi, ko'p hollarda ularning apparat va dasturiy ta'minotlarining rivojlantirishdan ortga qolayotganligi, amaliy ma'lumotlarning yetarli darajada ehtiyojni qondirolmashligini kuzatish mumkin.

A.G.Spirkinning yozishicha ma'lumotlarni izlash va qayta ishlash tizimlarining asosiy vazifalaridan biri ehtiyoj sezilayotgan ma'lumotni bilim darajasida ta'minlab berish va inson tafakkurida "g'oya, tushuncha, fikr, nazariya" shaklida etarli aks etishidir [1].

Ma'lumotlarni izlash va qayta ishlash, foydalanish muammosi axborotlashgan jamiyatning aniq bir muhim muammolaridan hisoblanishini kuzatish va his qilishimiz mumkin. Bunday muammolarni tadqiq qilish bo'yicha birinchi marta XIX asrning oxirlari XX asrning boshlarida tadqiqot ishlarini olib borgan Belgiyalik sotsiolog Pol Otle amalga oshirgan [2,38-b] va u fanga «Hujjatlar» metodini olib kirdi. Hujjatlar metodining maqsadi har qanday fan yoki bilim cohasidagi har qanday mavzudagi so'rovlarga javob berish uchun Hujjatlashtirish imkoniyatiga ega bo'lish kerak va buning uchun: universal mazmun; aniq va to'g'ri; to'liq; tezkorlik; eng so'nggi ma'lumotlar; mavjud; oldindan yig'ilgan va uzatish uchun tayyorligi; ko'p sondagi insonlarga taklif etilganligi va h.k. larni o'z tarkibiga olishi shart [3, 190 b.].

Izlash qurilmalari haqida fikrlarni bayon qilar ekanmiz Britaniya konserni «Imperial chemical industries, Ltd» uchun 1939 yilda U. Batten yaratgan superpozitsion perfokartalar tizimida patentlarni izlashni amalga oshirgan. Uning algoritmi koordinatali indekslashga asoslangan bo'lib, kalit so'zlar orqali hujjat mazmunini saqlab qolish bo'lgan. Bu g'oyani keyinchalik amerikalik matematik Kelvin Muersa tadqiqotlarida rivojlantirildi va u 1947 yilda yaratilgan va patenlangan "Zato-kartalar" asosida mexanizatsiyalashgan hujjatlarni izlash tizimini joriy qildi. Ammo 1950 yilda kelib, K.Muers ma'lumotlarni izlash uchun ilmiy yondashuvlar asosida «Axborot izlash», «Axborot-izlash tizimi», «Axborot izlash tili», «Izlash obrazi», «Deskriptor», «Deskriptorli lug'at» kabi terminlarni fanga kiritdi va ma'lumotlarni izlashning asoschisi bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab, semantik axborot xususiyatlari va tuzilishi haqidagi ilmiy qarashlardan iborat nazariy informatika sohasida faol rivojlanish boshlandi. Nazariy informatikaning metodologik asoslarini Ilmiy va texnikaviy ma'lumotlar instituti ittifoqi xodimlarining monografiyalariga keltirilgan [4,125-b].

1990 yillarga kelib, Internet tizimining va unda katta hajmdagi axborotni saqlash imkoniyatining paydo bo'lishi bilan axborot izlash tizimlariga yana ehtiyoj sezish boshlangan. Internet tizimining infra tuzilishining rivojlanishi axborot izlash usullariga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Chunki internetda ochiq, yopiq elektron axborot resurs tizimlari keng tarqala boshladi va axborot izlash uchun maxsus izlash tizimlari paydo bo'ldi. Masalan, ularga Alta Vista, Excite, Lycos, Yahoo, Yandex, Google va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu tizimlar asosan SEO (search engine optimization) tamoyiliga asoslangan holda veb sahifalardan axobot izlash va qayta ishlash, taqdim etishni optimallashtirish usullaridir. SEOda uchta optimallashtirish usullaridan keng foydalanib kelinmoqda.



Bular: - white SEO, grey SEO va black SEO.

Bugungi kunda internet tizimida minglab axborot izlash tizimlari o'z faoliyatlarini olib bormoqda va tarmoqlarini ham kengaytirib bormoqda. Masalan, Tizim nomi: Google, Veb manzili: <http://www.google.com>, Veb sahifalar soni: 400 mln.dan ko'p, Tili: 25 dan ortiq tilda faoliyat qiladi, Server kompyuterlar soni: 150000 da yaqin, Foydalanuvchilar soni: 300 mln.dan ko'p, bir haftada: 100000 yaqin foydalanuvchi ortadi, SEO optimallashtirish: har 1-2 kunda.

Haqiqatdan ham, axborot izlash tizimlarini foydalanuvchilari, veb sahifalari, interfeys tillari, server kompyuterlari sonining ortib borishi tizimlar orasida raqobat va ularga ehtiyoj borligini bildiradi. Bu esa axborot izlash tizimlarini, axborot izlash va qayta ishlash modellarini, usullarini doimiy takomillashuvi, rivojlantirilishini taqozo etadi.

Umuman olganda, axborotni izlash va qayta ishlash har bir taraqqiy etgan davrning dolzarb muammosi bo'lib kelgan va bo'lib qoladi. Axborot resurslarida axborot izlash va qayta ishlashning texnologiyalarini rivojlanishi bu jamiyat fuqarolarining turli xildagi axborotga ehtiyojlari ortib borishini bildiradi. Telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarining muntazam rivojlanishi axborot izlash tizimlari va resurslariga yangidan yangi talab va muammolarni keltirib chiqaradi deb o'ylaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шокин Ю.И. Проблемы поиска информации. Новосибирск: Наука, 2010. – 220 с. ISBN 918-5-02-018969-0.
2. Otlet P. Traite de documentation. – Bruxelles: Ed. Mundaneum, 1934.
3. Отле П. Библиотека, библиография, документация. пер. с англ. и фр. – М.: ФАИР-ПРЕСС, Пашков дом, 2004.
4. Михайлов А.И., Черный А.И., Гиляревский Р.С. Основы информатики. – М.: Наука, 1968.



## ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АХБОРОТ ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ

**Муртозоев Мелибек Зокирович,**

Жиззах давлат педагогика институти доценти  
(+998933058623, murtazaev@gmail.com)

**Мавлонов Эргаш Дўстмурод ўғли,**

Жиззах давлат педагогика институти магистранти  
(+998996863668, ergashmavlonov5545@gmail.com)

**Аннотация:** Ушбу мақолада замонавий ахборот технологияларини таълим тизимида жорий этиш ва ундан талаб даражасида фойдалана олиш ҳақида фикр юритилади.

**Калит сўзлар:** Ахборот саводхонлиги, шахсга йўналтирилган ёндашув, ахборот-коммуникацион технологиялари.

Мамлакатимизнинг жаҳондаги обрў ва нуфузини белгилаб берадиган омиллардан бири – амалга оширилган ислохотлари ўзини оқлаган таълим тизими ҳисобланади. Ҳозирги таълим тизимида ўқувчи-талабаларни замонавий билимларни чуқур эгаллашларида замонавий ахборот технологияла рини таълим тизимида жорий этиш ва ундан талаб даражасида фойдалана олиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Ўрганилаётган маълумотни фақат ўқиш ёки эшитиш билан ўқувчи-талаба тўла маълумотга эга бўла олмайди. Бундай пайтларда ўқувчиларга таълим беришнинг танишиш, ушлаб кўриш, ишлатиб кўриш, ишлатиш кабиларга асосланган педагогик шароитни яратиш талаб қилинади. Мутахассисларнинг фикрича, инсоннинг эшитиш аъзоларига нисбатан кўриш аъзолари ёрдамида қабул қилинган беш маротаба кўп маълумотни эслаб қолиш мумкин. Чунки, эшитиш аъзоларига нисбатан кўриш аъзоларидан олинаётган маълумотлар қайта кодлаштирилмай, тўғридан-тўғри хотирага ўтади ва сақланади. Шуни эътиборга олиб, таълим тизимида ўқувчилар томонидан ўқув материаллини тўлиқ ва самарали тарзда ўрганилишида ахборот-коммуникацион технологияларини қўллаш айтилган педагогик шароитни таъминлашга хизмат қилиши мумкин.

Ўқувчи-талабаларга дарс материалларини ахборот-коммуникацион технологиялари орқали етказилиши, яъни дарсларда мавзуга доир ўқув фильмларининг намоиш этилиши, электрон ўқув дарсликлари, расм, машқ ва тақдимотлардан ҳамда электрон хариталардан фойдаланилиши натижасида уларнинг илм-фанга бўлган қизиқиши ортиши билан бирга мавзунини ўрганиши самарали кечади.

Таълим тизимида ахборот-коммуникацион технологияларини қўллашда қўйидаги мақсадлари муҳим бўлиши мумкин:

- ўзлаштиришга берилган манбаларни таҳлил қилиш, саралаш;
- танқидий фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш;
- ахборот-коммуникацияли матнларни идрок этиш, баҳолаш, тушуниш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантириш;
- демократик жамиятда яшашга тайёрлаш;
- ахборот-коммуникацияли матнларни ижтимоий, маданий, сиёсий, иқтисодий мазмунини тушунишга ўргатиш;
- мулоқот кўникмаларини ривожлантириш;
- ахборот коммуникацияли матнларни эстетик идрок этиш, тушуниш, эстетик сифатларини баҳолаш кўникмаларини ривожлантириш;
- кўрганлари асосида ижодкорлик тафакурини ривожлантириш.

Мавзунини дарс материалларига оид фильмнинг намоиш этилиши ўқувчи-талабаларнинг тасаввур қилиши ва тушуниши тўлиқ ва осон бўлади. Электрон дарслик анъанавий дарсликка нисбатан ўқув материалларини намоиш қилиш учун кенг имкониятлар яратиши мумкин.

Ахборот-коммуникацион технологияларини асосий мазмуни ахборот коммуникацияли маданият тилини, унинг тарихини билиш, тушунишдир. Ўқувчи-талабаларни мустақил ишлашларида, уй вазифалари ва топшириқларини бажаришларида, “ахборот омбори” бўлган Интернетдан маълумотларини олишларида ахборот-коммуникацион технологиялари жуда қўл келади.



Демак, замонавий инфор­мацион-коммуникация технологияларини барча соҳалар қатори таълим тизими­га кенг жорий этиш, ўқувчиларда ундан оқилона фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш бугунги куннинг кечиктириб бўлмайдиган вазифа экан.

**Адабиётлар рўйхати:**

1. Сластинен В.А., Исаев И.Ф., Михенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика Москва. Школьная пресса. 2004 й.
2. Педагогические технологии / Под.ред. Кукушина В.С. - М.: 2006 й.
3. Колеченко А.К. Энциклопедия педагогических технологий-СПБ.: КАРО, 2005 й.
4. Азизхуджаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат.-Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2006 й. 200 б.
5. Зиёмухамидов Б. Педагогика. Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма. - Т: “Турон-Иқбол”, 2008 й.
6. Мавлонова Р., Арабова М., Педагогик технология (методик қўлланма). - Т: 2008 й. 47 бет.
7. Юлдошев Ж., Юлдошева Ф., Юлдошева Г. Интерфаол таълим сифат кафолати. –Т.: 2008 й. 153 бет.
8. Мавлонова Р.А., Арабова М., Салоҳиддинова Ғ. Педагогик технология. - Т: “Фан” нашириёти. 2008 йил, 123 бет.



## BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI NAZARIY ASOSLARI

**Nasullayeva Shaxinabonu Jasurovna**

TDPU ta'lim –tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang'ich ta'lim 1- kurs talabasi)

Telefon: 99 001 33 20 Elektron pochta: shaxiwkacha@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalardan foydalanishni nazariy asoslarini o'rganish bo'yicha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari, intellektual salohiyat, ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy salohiyat.

**Axborot texnologiyalarning ahamiyati.** Jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, o'qituvchi ham o'z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin. Har bir o'qituvchi mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o'z axborot muhitini shakllantirishga zamin yaratishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'z muhitida axborot ob'ektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi.

Hozirgi kunda o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlari va talablarini inobatga olishi zarur. O'qituvchi tomonidan targ'ib etilayotgan ta'lim va tarbiya tizimi shaxsga yo'naltirilgan xarakterda ega bo'lishi, ya'ni shaxsning har xil xususiyatlari va sifatiga e'tibor qilgan holda tabaqalashtirilgan bo'lishi kerak.

Har qanday ta'lim va tarbiya tizimi ma'lum bir ijtimoiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va nihoyat, siyosiy muhitda shakllanadi va rivojlanadi. Bu muhitlarning eng ustuvori ijtimoiy-iqtisodiy omildir. Ilmiy-texnik taraqqiyot, madaniy va siyosiy muhit ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni rivojlantirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi, chunki umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari insonni iqtisodiyot, madaniyat, siyosiy hayotda qizg'in faoliyat ko'rsatish uchun tayyorlaydi. SHuning uchun ham ta'lim muassasalari o'qituvchisi ta'lim-tarbiya jarayonining tayanch bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyot o'zining ifodasini kechikib topmoqda. O'qituvchi va o'quvchilarning fikrlashi va qabul qilish faoliyatida yangi g'oyalar, yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish ma'lum bir vaqtni talab etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, birinchi navbatda, ta'limning paradigmasini o'zgartiradi. Agar ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, hozir kunda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. SHu sababdan ta'limning o'qituvchi-darslik-o'quvchi paradigmasi o'quvchi-darslik-o'qituvchi paradigmasi bilan o'rin almashmoqda. O'qituvchi endilikda yangi statusga ega bo'ladi, endi uning vazifasi o'quvchilarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish, bilimlarni mustaqil egallash va ularni amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iborat. O'qituvchi bunday maqsadlarda o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlashi kerakki, u o'quvchilarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan izlash, mustaqil egallash, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va avvalgi egallangan bilimlardan yangilarini olishda foydalanish imkoniyatini yaratish kerak. Bunday o'qitishni "rivojlantiruvchi" ham deb atash mumkin.

Bilimlarni o'zlashtirish fikrlashni rivojlantiruvchi muhim omil hisoblansada, bilimlarni har qanday o'zlashtirish yoki egallash o'quvchining fikrlashiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Buning uchun bilimlarni faoliyat shakllarini faollashtirish lozim. Egallangan bilimlarni oddiy qaytarish o'quvchi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda yetarli bo'lmaydi. Faol bilish, mustaqil fikrlash faoliyati juda zarurdir. Bilimlarni mustaqil egallash faoliyati va olingan bilimlarni qo'llash jarayoni yangi bilimlarni shakllanishiga, o'quvchining samarali fikrlash



manbaiga aylanadi. Shu sababdan mamlakatimizda va jahonning rivojlangan davlatlarida ta'lim sohasini isloh qilish jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi, zarur axborotlarni mustaqil izlab topish, muammoni qo'ya bilish va uning yechimini hal etish, olingan bilimlarni tanqidiy tahlil eta olish va bu bilimlarni yangi masalalarni yechishda qo'llash uchun yo'naltirilgan. Endilikda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zaruriyligi barchaga ayon bo'lmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish – bu o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'quvchi shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o'qitishdir. SHunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishda o'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Masala yechishni o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Umumta'lim maktablarning moddiy–texnika resurslari ortib borishi bilan matematika darsida o'qituvchi an'anaviy ko'rsatmali vositalarni kompyuter slaydlari bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bunday imkoniyatlar ayniqsa masala yechishni o'rgatish jarayonida qo'l keladi. Masala syujetining dinamikasi slaydlarda yoki multiplikatsiya orqali ko'rsatib berilishi mumkin. Bunday vositalar ayniqsa, murakkab masala ustida ishlashda, o'zaro proportsional bog'langan miqdorlarga oid masalalarni tushuntirishda va ayniqsa harakatga doir masalalarni yechishda qo'l keladi. O'qituvchi eng oddiy slaydlarni o'zi yaratish imkoniga ega. Keyinchalik esa, bunday ko'rsatmali elektron vositalar mutaxassislar yordamida tayyorlanib, maktablarga tarqatilishi ham mumkin bo'ladi.

**Umumiy xulosa.** Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kompyuter texnologiyasi (kompyuter savodxonligi) mazmunining quyidagi tuzilmalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak deb hisoblaymiz:

- informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilishi;
- kompyuter texnikasining funktsional imkoniyatlarini bilishi;
- zamonaviy operatsion tizimlarni bilish va ularning asosiy buyruqlarini o'zlashtirishi;
- zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tizimlarni (Norton Commander, Windows, ularning versiyalarini) bilish va ularning vazifalarini o'zlashtirishi;
- kamida bitta matn muharriri bilan tanish bo'lishi;
- algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'lishi;
- amaliy dasturlardan foydalanish to'g'risida dastlabki tajribaga ega bo'lishi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: “Sharq” nashriyot – matbaa konserni.
2. Karimov I.A “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”- Toshkent.: O'zbekiston, 2011, 440 bet.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi qonun” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-: Sharq, 1997, 20-29 bet.
4. Bikbayeva N.U va boshqalar ”Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi ”- Toshkent.: O'qituvchi, 2007, 208 bet.
5. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z „Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi“ Toshkent.: Fan va texnologiya, 2005, 312 bet.



## МАКТАБДА INTERNET RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Nishonov Akmaljon Obidovich**  
Farg'ona viloyati XTXQTMOHM  
MO'HM bo'limi boshlig'i  
e-mail:akmal7x@mail.ru  
tel: +99 897 811 27 06

**Annotatsiya:** Maqolada maktab o'quv jarayonlarida Web-saytlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari va ta'lim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Internet saytlari, axborot texnologiyalari, ma'lumotlar bazasi, Ziyonet tarmog'i, AKT sohasi.

O'quv jarayonlarida Web-saytlardan foydalanishning ko'pgina yutuqlari mavjud. Shu bois bunday saytlarni yaratish va mazmunan yangilab borish ta'lim muassasasi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan o'quv muassasalari uchun bag'ishlangan saytlarni yaratish har bir ta'lim muassasasi oldida turgan birlamchi vazifalar qatoriga kiradi. Bunday saytlarni yaratish uni o'rganish mobaynida internet tizimi bilan bog'liq omillarni hisobga olish lozim. Bunday omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Dunyo bo'yicha internet xizmati imkoniyatlarining kengligi;
- Veb-saytlar xizmatidan foydalanishning oddiyligi;
- Web-texnologiyalarni tarqatishdagi qulaylik;
- real vaqt masshtabida axborotlarga bo'lgan talablar;
- muassasa va xususiy shaxslarning o'zlari to'g'risidagi axborotlarni internetga joylashtirishga intilishi;
- tarmoq ma'lumotlar bazasida global mashstabdagi ixtiyoriy ma'lumotlarni to'plash.

Bugungi kunda internetga joylashtirilgan Web - saytning ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan saytlar turidan foydalanamiz. Bunday saytlar asosan ta'lim muassasasi haqida ma'lumotlar keng ommaga tanishtirish, ta'lim muassasasida faoliyat olib boruvchilar hamda o'quvchilarni ta'lim muassasasi bilan doimiy aloqasini ta'minlab turish maqsadida yaratiladi. Shuningdek ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan bir necha saytlar mazmunan va mantiqan birlashtirilib ta'limiy portalni tashkil qilishi mumkin.

Internet texnologiyalarining imkoniyatlari kengligi va sodda ekanligi internetdan foydalanuvchilarning daqiqa sayin ortib borishiga olib kelmoqda. Bu foydalanuvchilar orasida ko'pchilik qismini albatta, talabalar, o'quvchilar, ilmiy izlanish bilan band bo'lgan xodimlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida Internet texnologiyalaridan, xususan o'quv muassasalariga bag'ishlangan veb-saytlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Yangi axborot texnologiyalar vositalari takomillashib va rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda o'quv muassasasida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarning zarur axborotlarni Internet tizimidan mustaqil ravishda topa olishi, ular duch keladigan mavjud mutaxassisligiga oid muammolarni to'la va to'g'ri hal qila olishidagi muhim sharoitlardan biriga aylanib bormoqda.

Ta'lim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda, avval Internet xizmatining turlari va ularning xarakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir. Aynan ana shu aniqlangan ma'lumotlar Internet tarmog'ida ishlashning tashkiliy jihatdan shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Klassifikatsiyalashga asos qilib internetning ishlash uslubini olish mumkin. Bu holda Internet server xizmatlarini ikkiga: axborotli va kommunikatsion xizmat turlariga ajratish kerak.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqeahodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, ishxona va ta'tilda ta'qib etadi. Inson informatsiya ta'siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish informatsiyalarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan informatsiyalarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar



sari keng yo‘l ochish, ta’limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish - bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ta’lim tizimida o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanib o‘qitish qo‘llanilmoqda.

ZiyoNet tarmog‘ining asosiy maqsadi ta’lim tizimida respublika yoshlari hamda ta’lim oluvchilarni bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat. [ziyonet.uz](http://ziyonet.uz) subdomenlarida 12 ta ochiq resurslar joylashgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1. [people.ziynet.uz](http://people.ziynet.uz) – mashhur vatandoshlarimiz haqidagi ma’lumotlar;
2. [sites.ziynet.uz](http://sites.ziynet.uz) – foydali saytlar bazasi;
3. [library.ziynet.uz](http://library.ziynet.uz) – elektron kutubxona;
4. [foreign.ziynet.uz](http://foreign.ziynet.uz) – xorijiy tillarni o‘rganish;
5. [ask.ziynet.uz](http://ask.ziynet.uz) – savol-javoblar xizmati;
6. [institutions.ziynet.uz](http://institutions.ziynet.uz) – ta’lim muassasalari katalogi;
7. [groups.ziynet.uz](http://groups.ziynet.uz) – ijtimoiy guruhlar tizimi;
8. [blogs.ziynet.uz](http://blogs.ziynet.uz) – veb-sayt yaratish xizmati;
9. [abiturient.ziynet.uz](http://abiturient.ziynet.uz) – Respublika oliy ta’lim muassasalaridagi barcha mutaxassisliklar bo‘yicha ma’lumotlar va testlar;
10. [meros.ziynet.uz](http://meros.ziynet.uz) – O‘zbekiston madaniy merosi;
11. [games.ziynet.uz](http://games.ziynet.uz) – ta’limiy o‘yinlar jamlanmasi;
12. [talents.ziynet.uz](http://talents.ziynet.uz) – iqtidorli yoshlar bloki;

Xulosa, ZiyoNet axborot ta’lim tarmog‘i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek, aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta’minlash, AKT sohasida kerakli ma’lumotlarni berish, muloqat qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni o‘z zimmasiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari. Toshkent: 2000
2. Qodirov B.G‘., Begimqulov U.Sh., Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari. 2002 y.



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSION DARSLAR ORQALI O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH

**O'ktamova Gulbahor Nu'monovna**  
O'zbekiston tumani XTB metodisti,  
**Mahmudova Nafisaxon Ma'rufjonovna**  
O'zbekiston tumani 14-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda dars samaradorligiga erishish uchun integratsion darslarni tashkillash va shu orqali o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish asoslari yoritilgan.

**Kalit so'z:** dars samaradorligi, integratsion darslar, milliy qadriyatlar, fanlararo aloqadorlik

Savodxonlik darslari o'qish va yozuv K.D.Ushinskiy davridanoq integrirlanib o'tiladi. Hozir 1-sinfda yarim yillikda o'qish va yozuvga o'rgatiladi. Sinfdan tashqari o'qish ham integrirlangan. Bunda bir butun jarayon: kitob-o'qish jihozi sifatida, darsda olgan o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, matn - so'z san'ati sifatida, nutqning rivojlanishi, kitob olami, suhbatdoshlar doirasi sifatida. Azaldan tabiatshunoslik integrirlangan: tabiatshunoslik va geografiya. Matematika asli arifmetika, algebraning elementlari, geometriya, arifmetik materiallar yaxshiroq o'zlashtirishga ko'maklashadi. Shu bilan birga algebrani, geometriyani, mehnat ta'limi o'rganishga asos soladi. Yuqorida aytilgan integrar kurslarni o'qish - ona tili, o'qish - tabiatshunoslik, o'qish — tabiatshunoslik, o'qish — tasviriy san'at, o'qish - tabiatshunoslik - tasviriy san'at, ona tili - o'qish -tasviriy san'at, o'qish — tabiatshunoslik — mehnat, ona tili -tabiatshunoslik - tasviriy san'at kabilarga birlashtirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish, tabiat, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, O'zbekiston mening Vatanim mavzusini o'tishi uchun mavzu tushuntiriladi, tabiiy boyliklari va ularni qadriga yetish ko'rib chiqiladi, mavzu asosida rasm ham chiziladi. Bu esa bolaning mavzuni yaxshi tushunib olishiga yordam beradi, kengroq va chuqurroq tushunishiga imkon ortadi, uzoq vaqt yodda saqlab qolishiga yordam beradi. Bu esa dars samaradorligini oshiradi. Ona tili, o'qish, matematika, mehnat darslari integratsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Masalan, "Kuz" mavzusi o'tilsa, mavzu o'qiladi, tushuntiriladi, hosil yig'ib olishga doir masalalar yechiladi, mehnat darslarida mevalarni yasash mumkin. Shunda esa darsni mukammal o'zlashtirib olishlariga imkon yaratadi. Masalan; Bog'da o'quvchilar birinchi kuni 35 kg, ikkinchi kuni 45 kg olma terishdi. Hammasi bo'lib necha kg olma terishdi?  $35+45=80$  javob: 80 kg. Bu masala asosida mevalar rasmini chizishlari mumkin. Bola bir darsning o'zida kuz haqida o'rgandi, mevalar haqida bildi va rasm chizadilar, kuz mevalari haqida masala yechadilar. Shunday qilib, o'quvchi birgina integratsiya darsida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi va uzoq vaqt esda saqlab qoladi. Matematika, jismoniy tarbiya, tabiat, musiqa darslari mujassamlashtirilsa foydadan holi bo'lmaydi. Musiqa eshitish, mavzu yuzasidan misol yechish, narsalar yasash - bularning hammasi dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak;  
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart;

- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi ( mavzu jihatdan ) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga integrirlangan darslarga o'tish oson, chunki bir o'zi hamma



fanlarni o`qitadi. O`quvchi qanchalar yosh bo`lsa, u shuncha kam biladi. Shuning uchun boshlang`ichda integratsiya imkonlari chegaralangan. Boshlang`ich ta`limda amalda ichki va fanlararo aloqalardan foydalanish va rivojlantirish kerak. Boshlang`ich ta`limda integratsiya «oz-oz hamma narsadan» usuliga ega. Bolalar boshlang`ich ta`limda juda ko`p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to`g`risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to`ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o`qituvchi bir xillikdan qochishi va rang-barang shakl va usullarda dars o`tishi talab etiladi. Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o`quvchilardan oladi, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o`tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o`rgatadi. Lekin 1-2-sinflarda integratsion darslarga uncha berilmaslik tavsiya etiladi. Chunki bolaning bilim zapasi ko`p emas, grammatik, matematik va texnik ko`nikmalari shakllanib ulgurmagani. Chunki integratsiya mavjud mavzuni kengaytiradi, chuqur tahlil qilishni talab qiladi, hodisalarni umumlashtiradi, ularning bilim doirasi boshqa fanlar hisobiga kengayadi. O`quvchilar mustaqil tarzda shuncha ishni bajarishga kuchi yetmasligi mumkin. O`z navbatida o`qituvchiga juda ko`p talablar qo`yiladi. Integrirlangan dars o`qituvchidan qo`shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi.

Ta`lim-tarbiya jarayoni har bir o`qituvchidan katta aql-zakovat, sabr-matонат, o`quvchilarga va o`z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo`lishni talab etadi. O`qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib boruvchan bo`lishi, o`quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o`sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda yordam bera olish qobiliyati ta`lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta`minlovchi omillardir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta`limda integral texnologiyalar. 2003 y.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000 y.
3. Oripova, G. (2021). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. *Конференция*, 1(2). <https://doi.org/10.47100/v1i2.206>
4. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120. <https://doi.org/10.23856/3215>



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Onarboeva Shaxloxon Ismanovna**

Namangan viloyati Chortoq tumani

16-son umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ta'limiy o'yinlardan foydalanish kerakligi takidlangan va o'yinni o'tkazish usullari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'limiy o'yin, topshiriq, bilim, savol, topshiriq, dars, guruh.

Bugun jadallik bilan rivojlanayotgan mamlakatimizda ta'lim sohasiga juda katta ahamiyat berilmoqda. O'qitish tizimlari va ularning uzviy bog'liqligi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Yurtimizdagi majburiy ta'limning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida yangi innovatsion o'qitish usullaridan keng foydalanish, bilim sifatini oshirishga qaratilgan ishlar o'z samarasini berishi kerak albatta.

O'qituvchilar darslarning qiziqarli bo'lishi uchun o'quvchilarni qiziqtiradigan va ularni yosh xususiyatlariga mos keladigan usullardan foydalanish kerak. Bunda ta'limiy o'yin darslarining ahamiyati katta. Dars jarayonida ta'limiy o'yinlarga 5-10 daqiqa yoki chorak oxirida va yirik mavzularni qaytarishda butun bir darsni ajratish mumkin. Ta'limiy o'yin dars materiallarining mazmuni bilan uzviy bog'langan va o'quvchilar bilim saviyasiga mos bo'lishi kerak. Bunday darslar mazmuni va shakliga ko'ra har xil bo'lib, ular aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Ta'limiy o'yinni o'tkazishdan avval unga puxta hozirlik ko'rish, kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash hamda o'yin qoidalari tushuntiriladi. O'yinda faol qatnashgan va ularning shartini to'g'ri bajargan boshlang'ich sinf o'quvchilari rag'batlantiriladi, baholanadi, mustaqil ishlari esa taqdirlanadi. Biz hozir boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fani bo'yicha "O'yla, izla, top" deb nomlangan noan'anaviy dars usulini ko'rsatamiz. "O'yla, izla, top" darsini o'tkazish uchun sinf o'quvchilarini ikki kichik guruhlariga bo'lamiz. Bu guruhlarining har biriga nom beriladi. Keyin ularga tur bo'yicha savol va topshiriqlar beriladi. Guruh a'zolarining sardori tanlanadi. Guruh a'zolari savollarga va topshiriqlarga javob berish uchun muloqotga kirishadilar. Masalan, matematika darsligining biror bo'limini o'tib bo'lgandan keyin sinf jurnalidagi toq o'rindagi o'quvchilar 1-guruh bo'lib, ularni "uchburchak" nomi bilan; juft o'rindagi o'quvchilarni esa 2-guruh "to'rtburchak" deb nomlaymiz, guruh sardorlarini ko'rsatamiz va ularga oldindan tayyorlangan savol va topshiriqlarni berib baholab boramiz.

**1-tur topshiriqlari.** Bu turda guruh a'zolariga tezkor savollar beriladi. Masalan: Yonib turgan 5 ta shamdan 2 tasini o'chirsaq nechta sham qoladi? kabi savollar ikkita guruhga 10 tadan beriladi va har bir to'g'ri javob uchun 1 ball qo'yiladi.

**2-tur topshiriqlari.** Bu tur "Ber savoling, ol javobing" deb nomlanadi. Bu turda har bir guruh a'zolariga 5 tadan qiziqarli savollar beriladi.

**3-tur topshiriq savollari.** "Ehtiyot bo'l" bahsi (boshqotirma). Bu turda guruh ishtirokchilariga fanga oid boshqotirma savollar beriladi. Tenglik to'g'rimi?. Har bir to'g'ri javob uchun 5 ball qo'yiladi.

**4-tur topshiriqlari.** "Bilimdonlik" bahsi. Bu turda har bir ishtirokchiga test savollari berilib, ular o'sha vaqtda tekshiriladi. Har bir to'g'ri javob uchun 2 ball qo'yiladi.

**5-tur topshiriqlari.** "Omadli o'yinchi" bahsi. Bu turda omadli o'yinchi tanlanadi. Omadli o'yinchiga matematika oid formula va qoidalarni doskaga yozish buyuriladi va to'g'ri javob uchun 5 ball qo'yiladi.

**6-tur topshiriqlari.** Bu turda guruhlar o'zaro bellashadilar. Unda topishmoqli masalalar (maqollar) yechiladi. Bu tur oxirgisi bo'lib, keyin guruhlar tomonidan to'plangan ballar e'lon qilinadi va ta'limiy o'yin darsiga qatnashgan o'quvchilar bilimi baholanadi va rag'batlantiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish.
2. Tolipov U.K va boshq. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari.
3. www.ziynet.uz



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING LUG'ATINI BOYITISH OMILLARI

**Shokirova Mavludaxon**

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
51-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi,

**Raximova Karimaxon**

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani  
51-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'atini boyitish, faollashtirish usullari haqida fikr yuritilgan va maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi misollar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** lug'at, matnni o'qish, nutq o'stirish, lug'atni faollashtirish, maxsus mashqlar.

Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib boradi. Matnni o'qish jarayonida so'zning ma'nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o'quvchilar diqqati matn mazmunidan chalg'itilmay, qisqa izoh berib o'tib ketiladi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning o'rganishi ko'zda tutilgan bilimlarni egallashlarida, ularni amaliyotda qo'llashlarida tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlari va uni o'z mulklariga aylantirishlari muhimdir.

Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi. Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan bin lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilning lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4—6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagi-larni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va tako-millashtiriladi:

1. Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi



chuqurlashtiriladi, ayrim soʻzlar maʼnosiga aniqlik kiritiladi.

Oʻquvchilar lugʻatini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. Oʻqish darsida bolalar lugʻati maʼlum mavzularga oid soʻzlar hisobiga ham boyiydi. Ular lugʻatiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinsoʻz, mehribon, haqcpniy, botir, mard, ja-sur, mehnatsevar kabi koʻpgina soʻzlar qoʻshiladi. Matn ustida ishlash jarayonida koʻp maʼnoli soʻzlar, sinonimlar, koʻchma maʼnoda ishla-tiladigan soʻzlarni, baʼzi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni oʻrganish darslari koʻpgina soʻz va atamalarni oʻzlashtirishga yordam beradi, oʻquvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan soʻzlarni bilib oladilar. Bu darslarda oʻquvchilar lugʻati tartibga solinadi, soʻz turkumlarini oʻrganish jarayonida guruhlanadi, soʻz tarkibi, soʻz yasalishi, soʻzlarning oʻzgarishini oʻrganish bilan esa lugʻatga aniqlik kiritiladi; ular oʻrgangan soʻzlaridan oʻz nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lugʻatlari faollashadi. Oʻquvchilar lugʻati maxsus lugʻaviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Xulosa qilib aytganda, soʻz maʼnosini tushuntirish ustida ishlash oʻquvchilar lugʻatini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. Matchonov S va boshq. Boshlangʻich sinf oʻqish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. — T.: „Yangiyul poligraph service“1, 2008.
2. Qosimova K. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent, 2009.
3. Oripova, G. (2021). RHYTHM AND MYTHING IN LYRICAL GENRE. *Конференция*, 1(2). <https://doi.org/10.47100/v1i2.206>
4. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. *Scientific Journal of Polonia University*, 32(1), 116-120. <https://doi.org/10.23856/3215>



## QR KODLARINI ISHLATISHNING AFZALLIKLARI

**Tosheva Hamida Namozovna**

Navoiy viloyati Navoiy shahar

11-AFCHO'IM informatika va AT fani o'qituvchisi

Tel: +998907391342

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada QR kodlar, ularning tarqalishi formatlari va QR kodlarni ishlatishning afzalliklari haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** QR kod, dastur, axborot, kvadrat, telefon, shifr, sayt.

Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifalarni qo'yimoqda, ya'ni o'quvchi kelajakda jamiyatda yashashga tayyor bo'lishi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan, yangilanib borayotgan axborotlar bilan uyg'un holda faol ishlaydigan kasb egalari timsolini bugungi o'quvchi yoshlarda shakllantirish lozim. Buning uchun informatika darslarida o'quvchilarni ma'lumotlarga ishlov berish, qayta ishlash, maqsadga ko'ra ularni shakllantirish va real vaqt oralig'ida o'z egasiga yetkazib berish kabi maxsus xizmatlarni amalga oshiruvchi avtomatlashgan axborot tizimlari bilan ishlashga o'rgatib borish lozim. Quyida maxsus xizmatlarni amalga oshiruvchi QR kodlari to'g'risida tushuncha berish orqali ta'lim jarayonida ushbu yangi zamonaviy axborot texnologiyasidan foydalanish g'oyasini rivojlantirish uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi. Bugungi kunda QR kodlari ko'pchilik uchun allaqachon oddiy narsaga aylangan, lekin ko'pchilik aslida u haqida tushunchaga ega emas, lekin kunda oq fonda sirli qora kvadratchalar bilan tasvirlar reklama afshasi yoki plakatining burchagida, paketlarda, jurnal sahifalarida va hatto biznes kartalarida, tovarlar etiketkalarida, kommunal to'lovlar kvitansiyalarida yoki saytlar sahifalarida ham ko'radilar. Xo'sh, bu belgi nima va u nima uchun kerak? Mana shu QR koddir. QR kod mazmun mohiyatiga asosan ingliz tilidan olingan bo'lib "Quick Response" so'zlarining qisqartirmasidir. Uning mazmuni "tezkor javob" ma'nosini beradi.

**QR kod nima uchun kerak?** QR kodini ishlatishni bilmagan har bir kishi bu savolni berishi tabiiydir. QR kod juda ko'p ma'lumotni yetkazishda yoki undan foydalanish uchun ayniqsa qulay hisoblanadi.

QR kod 1994-yilda Yaponiyaning "Denso Vave" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ikki o'lchovli shtrix kodi (matris kodi). 2953 baytlik ma'lumotni bitta kichkina kvadratga, ya'ni 7089 ta raqam yoki 4296 ta harf (A4 formatidagi 1-2 sahifa), 1817 iroglif joylashtirish imkonini beradi. Bu kodning bosh afzalligi shundaki, u skanerlovchi uskuna (mobil telefon, fotoapparat yoki qo'l skaneri) yordamida oson va tez o'qish hamda kodlash imkonini beradi.

QR kod qo'llanishining asosiy tamoyili shundaki, u giperhavola tarzida ishlay oladi. Bu birdaniga ko'p ma'lumot haqida xabar berish zarur bo'lgan holatlarda yoki uni soddalashtirish kerak bo'lganda juda qulay vosita sanaladi. QR kod elektron ma'lumotlar uzatish prinsipiga asoslanadi. Bu, ayniqsa, ko'p miqdordagi axborotni uzatish yoki undan foydalanishni soddalashtirishda qo'l keladi. QR kod surati mahsulot yoki xizmatni tanlash jarayonini yengillashtirishga yordam beradi, axir qadoq yoki reklama plakatidagi mana shu kichik kvadratchada 4296 tagacha belgi sig'iriladi. U aloqa jarayonini optimallashtirishga ham xizmat qiladi, masalan, aksariyat holatlarda tashrif qog'ozidagi nishonchada birgina tugmani bosish bilan kontaktlaringiz ro'yxatiga qo'shiladigan telefon raqami shifrlangan bo'ladi. Shu bilan birgalikda, QR kodlar yordamida havoladan o'tish, electron xat, SMS yuborish, manzil joylashuvini bilish va boshqa ko'plab amallarni bajarish mumkin.

Bugungi kunda butun dunyoda elektron to'lovlarni amalga oshirishda ham mazkur texnologiyadan faol ravishda foydalanilmoqda. Masalan, Yaponiyada do'konlarda sotiladigan deyarli barcha mahsulotlarga QR kod qo'llaniladi, savdo tarmoqlarida xarid qilishda yoki xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishda bank kartasidan foydalanmasdan mazkur QR kodlar yordamida hisob-kitob qiladi.

Hisob-kitobning bunday usuli xaridor uchun ham, sotuvchi uchun ham oddiy bank plastik kartasidan to'lovni amalga oshirishdan ko'ra qulayroq. Chunki ushbu holatda kartani qabul qilish uchun terminalga hojat qolmaydi va xaridor uchun ham kartalarni cho'ntakda olib yurishning keragi bo'lmaydi – smartfon ularning o'rnini bosadi. Shuningdek, QR kodlar reklama kitoblari va ma'lumotnomalarga joylashtirilgan. QR kod bilan hatto turli musobaqalar va rol o'ynash o'yinlari



ham tashkil etiladi.

QR kodlar dunyodagi eng ko'p quyidagi formatlarda tarqalgan:

**Internet-manzil** -QR kodlari Internet resurslari bilan bog'lanishni o'z ichiga oladi. Kodni o'qish foydalanuvchini kerakli saytga yo'naltiradi. Brauzerning manzil satrida ko'plab belgilarni diqqat bilan kiritish zarurligini bartaraf etadi.

**Aloqa ma'lumotlari**- kod biznes kartalari juda keng tarqalgan, kodni skaner qilib telefon yoki kompyuterning manzillar kitobida aloqani saqlash mumkin.

**SMS** - Ko'pincha, tadbirda, aksiyada, o'yinda ishtirok etish uchun SMS yuborish talab qilinadi. SMS yuborishda QR kodlari sizni yozishdan xalos qiladi. Buning uchun siz kodni skaner qilishingiz va yuborishingiz mumkin bo'ladi.

**Geografik ma'lumotlar** - QR kodi shifrlangan bo'lishi mumkin. Bu sizga bir yoki bir nechta joyni ko'rish imkonini beradi, masalan, "Google xaritalar"da.

**Matn** - bu format turli maqsadlar uchun javob beradi, masalan, axborot, ma'lumot olish uchun.

**Elektron pochta manzili** - QR kodi elektron pochta manzilni va qabul qiluvchining nomini o'z ichiga olishi mumkin.

**Telefon raqamlari** - QR kodini skanerlashda telefon raqamini ham ko'chirib olib, darhol qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

Hozirda QR kodni o'qish uchun juda ko'p dasturlar mavjud. Ulardan eng ko'p tarqalganlari: iPhone qurilmalari uchun Bakodo, Android tizimida ishlovchi qurilmalar uchun esa Barcode scanner. QR kodga aylantirib beruvchi bepul onlayn saytlar: [www.qrcoder.ru](http://www.qrcoder.ru), [www.qrmania.ru](http://www.qrmania.ru), [www.yorituvchi.ucoz.net](http://www.yorituvchi.ucoz.net) mavjud.

Agar rasm Internetdagi veb-saytga joylashtirilgan bo'lsa, uni maxsus **online dasturi orqali QR** kodini skaner qilish orqali o'qishingiz mumkin. Lekin bu uncha qulay usul emas. Hozirgi kunda kameraga ega zamonaviy telefonlar kvadrat ko'rinishdagi tasvir ostida yashiringan ma'lumotlarni oson o'qish imkoniyatini beradi. Buning uchun bor-yo'g'i telefon kamerasini QR kodga yo'naltirgan holda, maxsus ilova orqali kodni tushurib olib o'qish ancha qulaydir. Masalan, QR kodi orqali narxni aniqlashingiz va boshqa mahsulotning xususiyatlari bilan taqqoslash uchun telefoningizga saqlab qo'yingiz ham mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umumta'lim maktablari informatika darsliklari.
2. [www.google.com](http://www.google.com)



## XX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДАГИ ПЕДАГОГИК ҒОЯЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

**Кубаева Юлдуз Исмаиловна,**  
Тошкент давлат педагогика  
университети 1-босқич магистранти  
+99 897 763 05 78  
charos.ulugbek.1990@gmail.com

**Аннотация:** Мақолада XX асрнинг иккинчи ярмида мамлакатимиздаги педагогик ғоялар тарихи, уларни тадқиқ этган олимлар, уларнинг бугунги ўзбек педагогикасидаги ўрни ва аҳамияти ёритилган.

**Калит сўзлар:** педагогика, педагогика тарихи, шарқ педагогикаси, илм-маърифат, тузум, халқ, таълим-тарбия

Бола тарбияси деб аталмиш буюк жанггоҳда педагогиканинг ўрни ниҳоятда каттадир. У қайси давр билан боғлиқлиги муҳим эмас. Чунки кишилик формациясининг ҳар қайси босқичида педагогика ўзининг олдиға нафақат таълим, балки тарбия, маданият ва маърифатни тарғиб этишни мақсад қилиб қўйган. Мустақилликка эришгунимизча биз Европа педагогикасини ўргандик, унга амал қилдик, ундаги қолиплардан чиқиб кета олмадик. Аслида Шарқ педагогикаси дунё тамаддунида беқиёс ўрин тутди. Таълим, тарбия, маърифат борасида ҳар неки юксакликка эришган бўлса, бунда албатта бизнинг бобокалонларимиз, ҳақ йўлида жон фидо қилган, асрий орзулари йўлида тинчини таълимга, тарбияга бахшида этган олиму-фузалоларимизнинг номи ётади.

XX асрнинг иккинчи ярмида мамлакатимизда ҳукмронлик қилган шўро тузumi халқимизни илм-маърифатга, соф педагогик қарашларга, миллий қадриятларга бўлган ҳурмати, уларни тараннум этиш, баралла куйлаш каби эркидан маҳрум этди. Мазкур даврда ёшлар онгига фақат ва фақат коммунистик ғоялар сингдирилди. Ушбу масалага қарши чиққанлар аёвсиз жазоланди.

Шунга қарамасдан хур фикрли, халқининг дардини куйлайдиган, унинг дарду-хасрати билан нафас оладиган маърифатпарвар, жадидчилик ҳаракати намоёндаларининг ҳақиқий издошлари ҳам мавжуд эди. Қаттиқ мустабид тузум даври бўлишига қарамасдан улар мардонавор туриб, ўзларининг халқчил, озодлик, ватанпарварлик, педагогик ғоялари билан йўғрилган асарлари билан халқимиз қалбида эрка бўлган ишончининг сўнаётган оловларини қайта учқунлантирдилар. Бундай маърифатпарварлар жумласига Қори Ниёзий, С.Ражабов, Ш.Зуннун, Ғ.Ғулом, Ойбек, М.Шайхзода ва яна бошқа кўплаб адибларимизни киритиш мумкин. Уларнинг ижод йўлларини, педагогик қарашларини ўрганар экансиз, беихтиёр вужудингизда алланечук ўзгаришлар ҳис этасиз. Улар худдики, ўша замон инсонларининг юрагидаги, қалбидаги дардларини айтибгина қолмай, балки бола тарбиясида педагогиканинг ўрни, мақсади ва вазифаларини хассосона чизиб беришган. Улар томонидан яратилган таълимотларда инсоннинг ақлий камолоти, маънавий қиёфасининг бойиши, руҳий баркамоллиги билан бир қаторда жисмоний улғайиши ҳам шахсни етуклик даражасига кўтарувчи омил деб ҳисобланган. Таълим ва тарбия шахс камолотининг бошқа йўналишлари учун асос ва замин бўлиб хизмат қилади, деб санаганлар. Бу борада Ўзбекистон Республикасининг Биринчи президенти И. А. Каримовнинг қуйидаги сўзлари алоҳида эътиборга моликдир: “Ўтган давр мобайнида эски тузумдан оғир мерос бўлиб қолган ана шундай иллатларга, эл-юртимизга нисбатан камситиш ва миллий манфаатларимизни менсимаслик ҳолатларига барҳам бериш, кўҳна қадриятларимиз, дину диёнатимизни тиклаш, ҳаётимизда тарихий адолатни қарор топтириш, янги жамят куриш йўлида халқимизнинг маънавий юксалишини ўз олдимизга қўйган олижаноб мақсадларга етишда ҳал қилувчи мезон деб қараш ва шу асосда иш олиб бориш биз учун доимо устувор вазифа бўлиб келганини ва бугун ҳам эътиборимиз марказида турганини таъкидлаш лозим”.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, юқорида номлари келтирилган алломалар ўз илмий фаолиятларини бир неча йўналишларда олиб борган. Жумладан, педагогика фанининг методологик муаммолари, одоб ахлоқ ва тарбия масалалари, олий таълим дидактикаси, педагогика тарихини ўрганиш ва унинг ривожланиш истиқболларини таҳлил этиш,



шунингдек ахлоқан пок ва етук инсонларни тарбиялаш масаласини мувоффақиятли ҳал этишда халқимизнинг тарихий анъаналари, маънавий бойликлари, аждодларимизнинг бизга қолдирган илмий меросларининг ахамиятини доимо тарғиб этиш уларнинг илмий фаолиятларида марказий ўринни эгаллаган.

Бугунги илғор технологиялар асрида бошқа соҳалар каби педагогика соҳаси ҳам шиддат билан ўсиб бормоқда. Шунга қарамай, XX асрнинг иккинчи ярмида фаолият олиб борган маърифатпарвар инсонларнинг педагогик қарашлари, уларнинг соҳа бўйича қолдирган бой мерослари ҳозирги кунда ҳам дастурул амал вазифасини ўтамоқда.

Ана шундай етук олимлардан бири Қори-Ниёзий илм-фан аҳлини ҳар бир муаммони чидам, кузатиш, изланиш, меҳнат билан ҳал қилишга даъват этади, ҳар бир муваффақият инсонга қувонч бахш этишини, кишининг ҳаёти вақт билан боғлиқ эканлигини, вақт - соғлиқ-саломатликдан кейинги бебаҳо неъмат эканлигини айтади.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, замонавий педагогик таълимда XX аср иккинчи ярмидаги педагогик ғоялар тарихининг ўрни беқиёс. Ўқувчиларни ҳаётга тарбиялаш, тарих ва келажак ўртасидаги педагогик боғлиқликни англашларида муҳим манбаа ҳисобланади. Уни ўрганишда талабалар нафақат тарихий билим ва кўникмага эга бўлишади, балки келгуси илмий фаолиятларида ҳам асосий маълумотлар базаси вазифасини ўтайди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. И.А.Каримов. “Юксак маънавият енгилмас куч”. Тошкент, 2008 й.
2. А.Зуннунов. Педагогика назарияси. Тошкент, 2006 й.



## ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING YANGICHA USULLARI

**Mustafoyeva Nigora Saimovna**

Navoiy viloyati Navbahor tumani 36-maktab  
1-toifali boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Nurullayeva Gulchiroy Samandarovna**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 15-maktab  
2-toifali boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etish va bu darslarda yozma savodxonlikni rivojlantirish, turli interfaol usullarning ahamiyati haqida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** yozma nutq, diktant, «Juftingni top», «O'zingni angla», «Qo'lingni ber», ona tili ta'limi

Ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil ishlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga bo'lgan faoliyatni rag'batlashtirishi, o'z fikri va g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarini shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaririy xislatlarni singdira bilishi lozim.

O'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali o'qish va fikrlash malakasini rivojlantirishda nutqiy va lingvistik kompetensiyalrni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning talaffuz va imlo me'yorlari bilan tanishuvi asosan 2-4-sinflarda olib boriladigan ona tili mashg'ulotlarida kuzatiladi.

Yozma nutq savodxonligi tushunchasi imlo qoidalariga amal qilish bilan birga uslubiy savodxonlik hamda yozma nitqda tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish malakasini qay darajada egallaganlik kabi talablarni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarning yozma savodxonligini o'rganishda bu uch yo'nalishni e'tiborga olish juda muhim.

Barcha o'qituvchilarga tarqatmalar beriladi. Ular o'zlari qo'llayotgan usullar haqida qisqa ma'lumot yozadilar. Ona tili darslaridagi an'anaviy usullarga shu yozilganlar asosida ta'rif beriladi. Jumladan:

1. Diktant turlaridan foydalanish.
2. Matn tuzish mashqlarini bajarish.
3. Ijodiy ishlar yaratish .

O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda ,ayniqsa, xatolar ustida ishlashga alohida e'tibor berish lozim. Albatta, xatolarni guruhlash va qaysi xatoga yo'l qo'yganini o'quvchi anglab yetishi zarur. Yozma nazorat shlari bo'yicha o'tkaziladigan tahlil darslarida o'qituvchi xato turlari haqida tushuncha beradi. Har bir o'quvchi qaysi so'zda yoki tinish belgisini qo'llashda, jumla tuzishda xatoga yo'l qo'yan bo'lsa uni tuzatib sinf daftariga yozadi. Shu so'z ishtirokida maqol, biror jumla tuzadi. Tinish belgilari bo'yicha yo'l qo'yilgan xatolar o'sha tinish belgisini qo'llash bilan bog'liq qoidalarni qayta-qayta takrorlash orqali bartaraf etiladi.

Demak, o'quvchi bu xatosini o'zi tuzata oladi. O'qituvchi unga to'g'ri yo'nalish bersa bas. Bu usul «Sergak savodxon», «Talaffuz va tafakkur», «Mening o'rnim qayerda?» «Xotira charxi», «Tasvir sehri» kabi usullarni o'z ichiga oladi. Bu o'yin usullaridan har bir mavzuda qo'llash mumkin. Ona tili ta'limida bu usullarga yana quyidagi zamonaviy usullarni qo'llash mumkin:

So'zlarning imlosini o'rganishda bu usul juda qulay. O'qituvchi doskaga jarangli va jarangsiz undoshlar bilan tugagan fe'l asoslarini yozib qo'yadi. 2-ustunga k undoshi bilan tugagan fe'l asosi, 3-ustunga q undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga misollar yozadi.

### «Juftingni top» o'yini.

3 nafar o'quvchi sinf doskasiga chiqariladi. Ularga fe'llarning o'tgan zamon shakli -gan, -qan, -kan qo'shimchalri toji kiydiriladi. Ularga o'z juftlarini tanlash topshiriladi. Topshiriqni tez va tog'ri bajargan o'quvchi bu so'z ishtirokida maqol, hikmatli so'z yoki she'riy parcha yod aytadi.



Bunda o`qituvchi sinf taxtasiga talaffuzda va yozuvda tovush o`zgarishiga uchragan so`zlar lug`atini yozadi. O`quvchilarga shu so`zlarni tarkibiy qismlarga ajratish va yuz bergan tovush o`zgarishlarini izohlash topshirig`i beriladi. Bu o`yin 2-sinf dan boshlab qo`llanishi mumkin. Masalan: Yig`lamoq, qiynamoq, qishlog`i, teragi, porloq, mening, seniki, qiynoq, bunda, unga, yasha, ata, angla va hokazo. O`quvchilar monitorda bu so`zlarni asos va qo`shimchalarga ajratib yozadilar. Yig`i+la-yig`la i unlisi talaffuzda tushadi va shunday yoziladi.

#### **«Qaysi biri ortiqcha» o`yini.**

Bu o`yin talaffuzda tovush orttirilishi kuzatilib, yozuvda ifoda etilmaydigan so`zlar imlosini o`rganishda qo`llanadi. Monitorga talaffuzda tovush orttirilishi kuzatiladigan so`zlar yoziladi. Masalan: Doyim, soxat, shoyir, mehird, sinif, orzuyim, metir, aqil, fikird, ilim, sehir. O`quvchilar daftarlariga ortiqcha harflarni tushirib yozadilar. Bu o`yinda o`quvchilar talaffuzda tovush tushishi va almashishi kuzatilgan so`zlarni to`g`ri yozishni o`rganadilar.

#### **«Qo`lingni ber» o`yini.**

Bu o`yin kelishik qo`shimchalarini to`g`ri qo`llash ko`nikmasini rivojlantiradi. O`yindan avval o`qituvchi kelishiklar qanday so`zlar bilan bog`lanishi mumkinligi haqida eslatma beradi. Masalan: qaratqich kelishigidagi so`z doimo ot turkumidagi so`z bilan, tushum kelishigidagi so`z esa fe`l turkumiga oid so`z bilan bog`lanadi. O`quvchilarga aralash sozlar beriladi va ulardan bir-birlari bilan qo`l bera olishi mumkin bo`lgan so`zlar ajratib yozishni topshiriladi.

Masalan: Ustoz, Vatan, daftar, ozodlik, kelajak, nihol, ek, orzu, intilmoq, yozmoq Vatanning ozodligi, ustozning orzusi, nihol ekmoq, kelajakka intilmoq daftariga yozmoq

O`quvchilar yozma nutqida ayrim tovushlarning yozuvdagi ifodasini to`g`ri farqlay olmaslik bilan bog`liq xatoliklar ham uchraydi. Masalan: u va o` unlilari, s va sh undoshlari imlosi va talaffuzi oid kamchiliklar. O`quvchilar bilan shu harflar ishtirokidagi so`zlardan tuzilgan lug`at diktantlarni, saylanma diktantlarni, ko`chirib yozish diktantlarini o`tkazish bunday xatoliklarni bartaraf etishda samarali natija beradi.

Ta`limdan asosiy maqsad, bolalarga bilim berishgina emas, Balki bilim olish yo`llarini o`rgatish, ularni ta`lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy-siyosiy sharoitda ona tilini o`qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o`quvchi faolligini oshiradigan omillardan hisoblanadi.

Ona tili fanidan tashkil etiladigan mahorat darslari oldiga qo`yiladigan vazifalar va ularni amalga oshirish yo`llari, har qanday mukammal dastur asosida yaratilgan takomillashgan darslik, samarali usullar bilan o`quvchilar ongiga singdirilgandagina kutilgan natija berishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang`ich sinf ona tili darsliklari
2. Matodik qo`llanmalar
3. Internet saytlari

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 25-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(10-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 28.02.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000